

O.AXMEDOVA, N.ISAKULOVA, M.ABDULLAYEVA

**NOMODDIY MADANIY MEROSNING
TABIAT VA KOINOTGA OID
BILIM VA KO'NIKMALARINI
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR
NEGIZIGA SINGDIRISH**

81.10
A-97

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI


O.AXMEDOVA, N.ISAKULOVA, M.ABDULLAYEVA

NOMODDIY MADANIY MEROSNING TABIAT VA KOINOTGA
OID BILIM VA KO'NIKALARINI IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR NEGIZIGA SINGDIRISH

(o'rta maxsus, kasb-hunar kollejlari misolida)

(Uslubiy qo'llanma)

“NAVRO‘Z” nashriyoti
TOSHKENT – 2015



KBK 81.10(5 O'zb) 5

M 85

UO'K: 190.5.8.3

ISBN 978-9943-381-70-4

O.Axmedova, N.Isakulova, M.Abdullayeva. **Nomoddiy madaniy merosning tabiat va koinotga oid bilim va ko'nikmalarini ijtimoiy-gumanitar fanlar negiziga singdirish // Uslubiy qo'llanma // T.: «NAVRO'Z» nashriyoti 2015. – 64 b.**

Uslubiy qo'llanma A1-011-sonli "Nomoddiy madaniy merosning tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlarini ta'lim tizimiga tatbiq etish" mavzusidagi loyiha doirasida tayyorlangan bo'lib, kasb-hunar kollejlari uchun ishlab chiqilgan.

Uslubiy qo'llanmadan kasb-hunar kollejlari hamda oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari, malaka oshirish tinglovchilari, shuningdek, mazkur muammoga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Loyiha rahbari va mas'ul muharrir:

filologiya fanlari nomzodi, dotsent v.b. O.Axmedova

T a q r i z c h i l a r:

tarix fanlari nomzodi, dotsent Z.Isoqov,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent P.Isamova

Ushbu uslubiy qo'llanma O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti Ilmiy Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

© "NAVRO'Z" nashriyoti 2015

© O.Axmedova, N.Isakulova, M.Abdullayeva

KIRISH

"Har bir xalq, jumladan, o'zbek xalqining ham tarixi betakroridir". Yurtboshimizning bu hikmatli so'zlari tasdig'ini milliy nomoddiy madaniy merosimizda ham yaqqol ko'ramiz.

Ma'lumki, nomoddiy madaniy meros (NMM) quyidagi sohalarda: a) o'zlikni namoyon qilishning og'zaki an'analari va shakllari, shu jumladan, nomoddiy madaniy merosni aks ettiruvchi omil – tilda; b) ijro san'atida; d) jamiyatning urf-odatlari, marosimlari, bayramlarida; e) tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar yig'indisida; f) an'anaviy hunarmandlik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarda namoyon bo'ladi.

"O'zlikni namoyon qilishning og'zaki an'ana va shakllari" tushunchasi mohiyatan xalq og'zaki poetik ijodi tushunchasi bilan muvofiq keladi. Xalq og'zaki poetik ijodida til muhim rol o'ynaydi, ushbu bebaho merosni ifodalashda va kelgusi avlodga yetkazishda eng asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Xalq og'zaki poetik ijodining tarkibiga mif, afsona, rivoyat, ertak, maqol, matal, doston, qo'shiq, topishmoqlar, tez aytish va boshqa janrlar, muxtasar qilib aytganda, xalq merosining og'zaki ravishda ifodalanadigan barcha tur va janrlari kiradi.

Ijrochilik san'ati tarkibida nomoddiy madaniy merosimizning juda katta qismi o'z ifodasini topadi. YA'ni xalq ijodining ijrochilik bilan bog'liq musiqa, raqs, xalq tomosha san'ati va boshqa barcha janrlari undan joy oladi. Ijrochilik san'atiga misol tariqasida quyidagilarni eslab o'tish mumkin.

Musiqa yo'nalishi bo'yicha: "Shashmaqom", "Xorazm maqomlari", "Toshkent – Farg'ona maqom yo'llari", "Dutor va surnay maqom yo'llari", "Tanovor", "Ushshoq", "Feruz", "Suvora", "Lazgi", "Mavrigi", "Miskin" singari turkumlar, katta ashula, askiya, allalar, o'lanlar, yallalar, laparlar, madhiyalar, termalar, shuningdek, dostonchilik, xaifa san'ati va hududga xos boshqa yo'nalishdagi manbalar.

Raqs yo'nalishi bo'yicha: Farg'ona, Xorazm, Buxoro, Surxondaryo raqs maktablari, hududlarga xos bo'lgan raqslar va raqs harakatlari, shu jumladan, bolalar, erkaklar, ayollarning yakka va guruhli raqslari.

Tomosha san'ati yo'nalishi bo'yicha: dorbozlik, polvonlik, an'anaviy sirk, ko'zboylig'ichlik, qo'g'irchoqbozlik, masxarabozlik, morbozlik, besuyaklik o'yinlari, yog'ochoyoq o'yinlari, milliy xalq o'yinlari va boshqalar.

Urf-odat, marosim va bayramlar tarkibiga mehmondo'stlik an'analari, axloq-odob bilan bog'liq urf-odatlar, farzand tarbiyasi bilan bog'liq marosimlar, beshik to'yi, ism qo'yish marosimi, o'g'il to'yi, sovchilikka borish, kelinsalom, milliy va mahalliy miqyosda o'tkaziladigan sayillar, hasharlar, tomoshalar, bayramlar va boshqalarni kiritish mumkin.

Tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar deganda, biz an'anaviy xalq taqvimlari, kunning botishiga qarab kelgusi kunning qanday kelishini taxmin

qilish, o'ynig turishiga qarab keyingi kunning ob-havosi qanday kelishi haqida fikr bildirish, hayvonlar harakati orqali sodir bo'ladigan voqealarni bashorat qilish, quduq qazish o'rni yoki imorat qurish joyini aniqlash, milliy sartaroshlik, an'anaviy tabobat, imoratsozlik, miroblik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar, pazandalik san'ati kabilarni tushunamiz.

An'anaviy hunarmandlikka oid bilim va ko'nikmalar misolida kashtado'zlik, zardo'zlik, quroqchilik, kandakorlik, gilamchilik, do'ppido'zlik, qo'g'irchoqsozlik, kulollik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, mayolika san'ati va hunarmandlikning boshqa yo'nalish va turlariga oid tajriba, bilim va ko'nikmalarni kuzatishimiz mumkin bo'ladi.

Uslubiy qo'llanmada "nomoddiy madaniy meros" tushunchasining mohiyati, uning ahamiyati, barqaror taraqqiyotni ta'minlashdagi o'rni, nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish borasida jahonda va xususan, bizning mamlakatimizda amalga oshirilgan ishlar, uni muhofaza qilishning huquqiy asoslari bayon qilingan. O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2010 – 2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 2010-yil 7-oktabr qarori hamda "Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 2011-yil 23-fevral qarori, shuningdek, YUNESKOning "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha Konvensiya"sida nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish muassasalari va uning tizimi haqida ma'lumotlar berilgan. Mazkur uslubiy qo'llanmadan nainki o'quvchilar, talabalar, balki kasb-hunar kollejlari hamda oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, malaka oshirish tinglovchilari, mustaqil tadqiqotchilar, barcha ayni muammoga qiziquvchilar ham foydalanishlari mumkin.

1-BOB

NOMODDIY MADANIY MEROSNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Nomoddiy madaniy merosni ta'lim tizimiga tatbiq etishda ilmiy-tadqiqot loyihalarining o'rnini

Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an'alariga, urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanadi. Umumiy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi orasidagi ma'rifiy ishlar takomillashtirib boriladi (12).

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir. Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

1-jadval

Uzluksiz ta'limda xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlarning ustuvorligi

Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning muhim omili	Uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsipi sifatida	Uzluksiz ta'lim sohasidagi islohotlar bo'yicha
Milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, vatanparvarlik, o'z vatani uchun iftixor tuyg'usining shakllanayotganligi, boy milliy madaniy-tarixiy an'analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat	Ta'limning milliy yo'naltirilganligi, ta'limning milliy tarix, xalq an'analari va urf-odatlarini bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlashdan iborat	Milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlarning ustuvorligi asosida ta'limning barcha darajalari va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish

Nomoddiy madaniy merosni o'rganib, quyidagi natijalarga kelish mumkin:

– tarixan shakllangan diniy tasavvurlarda tabiat va koinotga doir bilim va urf-odatlar ulug'lashtirilgan;

– xalq og'zaki ijodi namunalarida inson, tabiat va koinot munosabatlari ta'riflangan;

– turli davrlarda tabiat va koinot bilan bog‘liq urf-odat, marosim va bayramlar amalga oshirilganligi izohlangan.

O‘zbek xalqi qadim zamonlardan dehqonchilik, bog‘bonlik, chorvachilik bilan shug‘ullangan. Dehqonchilik ham, chorvachilik ham tabiat muruvvati va injiqliklari bilan bog‘liqdir. Erta bahordan kech kuzgacha dehqon dalada mehnat qiladi. Qishda esa yerga iloji boricha ko‘proq nam singdirish choralarini ko‘radi. Chorvador esa yil davomida chorvani boqish, semirtirish, ko‘paytirish bilan band bo‘ladi. Binobarin, yil fasllarining qulay kelishi dehqon xirmoniga baraka beradi, chorvador mehnati samarasini ro‘yobga chiqaradi. Shuning uchun otalar va momolar yomg‘ir chaqirish, yomg‘ir to‘xtatish, shamol chaqirish va to‘xtatish tajribasini ipidan ignasigacha keyingi avlodga meros qilib qoldirishga odatlangan. Natijada, o‘nlab marosimlar yuzaga kelgan. Marosimlar esa, albatta, so‘zning sirlı ta‘siri bilan yashagan, amalga oshirilgan.

O‘zbek mavsumiy marosim folklori asosini yil fasllarida o‘tkaziladigan marosimlar tashkil etadi.

Bahorgi mavsum marosimlari: loy tutish, shox moylash, Navro‘z, yomg‘ir chaqirish, darvishona; yozgi marosimlar: choy momo; kuzgi marosimlar: shamol chaqirish; qishki marosimlar: yas-yusunlardan iboratdir. Bundan tashqari, yozgi to‘qson, chilla, qishki to‘qson, chilla, ayamajuz, hut-yut deb nomlanadigan o‘nlab udumli muddatlar ham ma‘lum darajada marosim ko‘rinishlariga ega.

Masalan, loy tutish marosimida muayyan hududda yashaydigan aholi ariqlarni tozalash, dalaga suv chiqarishni osonlashtirish uchun hasharga chiqadi. Shox moylar marosimi bahorda qo‘sh chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan. Dehqonlar yil davomida ekin-tikin mo‘l-hosil berishiga umid qilib, birinchi qo‘sh haydaydigan ho‘kiz shoxiga zig‘ir moyi surganlar. Marosimda dehqonchilik piri – Bobodehqondan mo‘l hosil bo‘lishini tilab niyat qilishgan.

Yomg‘ir chaqirish bilan bog‘liq “Sust xotin” marosimi, asosan, bahorda yomg‘ir yog‘magan paytlarda o‘tkazilgan. Bu marosim ba‘zi bir joylarda ayollar, ba‘zi bir joylarda erkaklar ishtirokida o‘tkazilgan.

Odatda, ramazon oyi ramazon hayiti bilan yakunlangan. Ammo yil davomida ramazon aytuvchilar ham bo‘lgan. (Toshkent viloyati Angren tumanida yashagan marhum Oltivoy ota yil – o‘n ikki oy otda qishloqma-qishloq ramazon aytganini haligacha eslaydilar).

Marosimlar xalq hayotining tarkibiy qismi sifatida milliy urf-odatlar kabi qadrlanadi.

Yoki an'anaviy tabobat – zamonaviy meditsina paydo bo'lguncha – turli jismoniy va ruhiy kasalliklarga qarshi kurashish vositasi bo'lib xizmat qilgan. Zamonaviy meditsina sharoitida ham aholining muayyan qismi an'anaviy tabobatga murojaat etib keladi.

An'anaviy tabobat tajribasi oddiy odamlar tomonidan ajdodlardan avlodlarga uzatilib, oila a'zolarini mustaqil davolashga xizmat qilgan bo'lsa, uning maxsus bilimlari faqat shu soha bilan chuqur va muntazam shug'ullanib kelgan kishilargagina ma'lum bo'lgan. Masalan, og'iz bo'shlig'iga yara toshib ketishi (xalq tilida "og'iz uvilishi", zamonaviy meditsinada "stomatit" deyiladi)ni achchiqtosh bilan og'izni chayish orqali, suyak sinishini esa faqat "siniqchilar" davolaganlar.

Insonlardagi jismoniy kasalliklarning aksariyati dorivor o'tlar, qo'l bilan uqalash orqali davolangani holda, ruhiy kasalliklarning aksariyati duo o'qish va ruhiy ta'sir o'tkazish orqali yoki musiqa vositasida davolangan. Musiqaning inson ruhiyati va jismiga ta'siri, ayniqsa milliy musiqaning bunday xususiyati hali yetarlicha o'rganilmagan.

An'anaviy tabobatning juda katta sirlari Abu Ali ibn Sinoning asrlar osha yashab kelayotgan "Tib qonunlari" asarida yozib qoldirilgan.

An'anaviy tabobatda bir xil kasallikni turli yo'llar va vositalar bilan davolash amaliyoti ham uchraydi. Bunda tabib o'zi o'rgangan uslubdan foydalanadi.

Odamning jismoniy, ruhiy salomatligiga ona-tabiat, jamiyat bilan uzviy bog'liqligi marosimlar mohiyatidan ham ayon bo'ladi. Deylik, qish uzoq cho'zilib, ko'klam kelishi intiqlik bilan kutilganda «Boychechak» marosimi o'tkazilgan. Bu marosim ulus hayotida muhim sanalgan va unga maxsus tayyorgarlik ko'rilgan. Dastavval, kattalar ijrosida o'tkazilgan bu marosim keyinchalik bolalar folklori ko'rinishini olgan. Zero, unutilgan ko'pgina marosimlarning izlari aynan bolalar folklori tarkibida saqlanib qolgan.

Respublikamizning janubiy viloyatlaridan yozib olingan ma'lumotlarga ko'ra, boychechak tergani chiqqan bolalar dastlabki, birinchi boychechakni ko'rganda, uni oyog'i bilan bosib, toptab tashlaganlaridan so'nggina, boshqa boychechaklarni avaylab terishga tushganlar. Boshqa bir ma'lumotda esa dastlabki boychechak yulib olinib, daryoga otilgan. Bu o'rinda har ikki holatda ham boychechak muqaddas sanalib, qurbonlik qilinmoqda.

«Boychechak» marosimi avvallari qanday o'tganini tasavvur etish uchun uni bizgacha nisbatan to'liqroq shaklda saqlanib qolgan boshqa mavsumiy marosimlar bilan qiyoslash zarur bo'ladi. Negaki, ko'pchilik

mavsumiy marosimlarning mazmun-mohiyati, o'tkazilish tartibi bir-biriga deyarli uyg'un keladi. Bunga asosiy sabab tabiatda sehrli kuch mavjud deb ishonish, uning hodisalarini jonli deb tasavvur qilish hamda mavsumiy marosimlar asosan ikki fasl – yoz va qish haqidagi qarashlardan kelib chiqishidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrdagi 222-qaroriga 1-ilova – “2010-2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturi”ning 5-bandida nomoddiy madaniy merosning barcha yo'nalishlari bo'yicha grantlar ajratilishini ta'minlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, tadqiqot ishlariga yosh olimlarni jalb etish vazifasi ham qo'yilgan. Bugungi kunda amal qilayotgan nomoddiy madaniy meros mavzusi bilan bog'liq amaliy ilmiy-texnik tadqiqotlar dasturlaridan quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

-YOAl-003. YOsh olimlarning “O'quvchilarda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish tizimini shakllantirish” mavzusidagi 2014-2015-yillarga mo'ljallangan amaliy loyihasi;

-YUNESKONing Bangkok (Tailand) shahrida joylashgan Mintaqaviy vakolatxonasi bilan hamkorlikda “Barqaror taraqqiyot uchun ta'limni kuchaytirish maqsadida pedagoglar orasida nomoddiy madaniy merosni targ'ib qilish” mavzusidagi xalqaro loyiha;

-A1-011. “Nomoddiy madaniy merosning tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlarini ta'lim tizimiga tatbiq etish” mavzusidagi 2015-2017-yillarga mo'ljallangan amaliy loyiha;

-A1-018. “Nomoddiy madaniy meros va o'zbek folklori ijrochilik san'ati” nomli multimedia shaklidagi elektron o'quv qo'llanmani 2015-2017-yillarga mo'ljallangan amaliy loyiha doirasida tayyorlash.

Ushbu ilmiy-tadqiqot loyihalarida nomoddiy madaniy merosni o'rganish hamda ta'lim tizimiga tatbiq etish zaruriyati quyidagicha asoslanadi:

-qayd etilgan yosh olimlar amaliy loyihasida o'quvchilarda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish tizimini shakllantirish umumiy o'rta ta'lim hamda madaniyat va san'at kollejlari bilan cheklanib qolinganligi. Shuningdek, mazkur loyihada nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish tizimining tadqiq etilishi;

- YUNESKONing Bangkok (Tailand) shahrida joylashgan Mintaqaviy vakolatxonasi bilan hamkorlikdagi “Barqaror taraqqiyot uchun ta'limni kuchaytirish maqsadida pedagoglar orasida nomoddiy madaniy merosni targ'ib qilish” masalasi faqat umumiy o'rta maktablarning 6-sinf

o'quvchilari misolida ular o'qiydigan "Jismoniy tarbiya" fanida xalq milliy o'yinlari va "Musiqqa" fanida esa xalq milliy qo'shiqlari bilan chegaralanganligi;

-tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar an'anaviy xalq taqvimlari, tabiatdagi hodisalarni bashorat qilish, chorvadorlik, dehqonchilik, bog'dorchilik, milliy sartaoshlik, an'anaviy tabobat, musiqa yordamida davolash, imoratsozlik, miroblik va boshqa faoliyat turlari bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar, pazandalik san'ati kabilarni empirik o'rganishlarning yetarli darajada emasligi;

-nomoddiy madaniy meros va o'zbek folklori ijrochilik san'ati nomli multimedia shaklidagi elektron o'quv qo'llanmaning asoslarini ishlab chiqish lozimligi.

Nomoddiy madaniy merosni ta'lim tizimiga tatbiq etishda ilmiy-tadqiqot loyiha ishlarini uzluksiz olib borish bitiruv malakaviy, magistrlik, doktorlik dissertatsiyalari hamda o'qituvchilik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ilmiy-uslubiy va ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda yaqindan yordam beradi. Mazkur loyihalarning bajarilishida magistrlik, doktorlik dissertatsiyalari hamda ilmiy-uslubiy va ilmiy-tadqiqot ishlari yuzasidan aloqadorlik va uzluksizlikni bayon qilish uchun ilmiy mavzu, ilmiy tadqiqot, ilmiy taxmin, ilmiy g'oya kabi ilmiy-tadqiqot ishlariga oid atama, ibora va birikmalar foydalaniladi. Amaliyotga joriy etilgan mavzuga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil etish quyidagi xulosalarga olib keladi:

1. NMMga oid ilmiy-tadqiqot ishini tubdan takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish kadrlar tayyorlash sifati va raqobatbardoshligini kuchaytirish, bitiruv malakaviy ishi va dissertatsiya ishi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan mezonlar va talablarni ishlab chiqishga, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalarini tayyorlashning uzluksizligiga asos yaratadi.

2. Oliy ta'lim muassasalari va kadrlar buyurtmachilarining takliflari asosida ilmiy-tadqiqot, ilmiy-pedagogik hamda ishlab chiqarishga yo'naltirilgan dasturlar bo'yicha maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlarini tayyorlashni yo'lga qo'yish NMMga oid ilmiy-tadqiqotni yuksaltirish zaruratini taqozo qiladi.

3. NMMga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini uzluksiz davom ettirib, amaliyotga joriy qilish ilmiy tadqiqot va tajriba, ishlab chiqarish, ilmiy-pedagogik, ilmiy-ijodiy ish turlarini rivojlantirish imkonini beradi.

4. Ilmiy-tadqiqot dasturlari, markazlari talablari darajasida nazariy va amaliy ta'lim, laboratoriya mashg'ulotlari, ilmiy tadqiqot ishlarini olib

borish, dissertatsiyalarni tayyorlash zaruriy o'quv-uslubiy va moddiy-texnik bazaning joriy etilishini ta'minlaydi.

Ta'langan NMM mazmunining dolzarbligi quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

Birinchidan, NMM bo'yicha mutaxassislar ehtiyojining uzluksiz ta'lim bilan uzviyligi.

Ikkinchidan, NMMga oid muammolarning tizimli tadqiq etilmaganligi.

Uchinchidan, NMMga doir ilmiy-tadqiqot ishlari ilmiy-metodik jihatdan asoslangan holda tizimli ishlab chiqilmaganligi.

Yuqorida qayd etilgan tabiat va koinotga oid bilim va ko'nikmalarni o'rganish va keng targ'ib etish, saqlab qolinishiga zamin yaratish nomoddiy madaniy merosga avlodlar vorisligini ta'minlash jarayonida juda muhimdir. Xulosa qilib aytganda, ilm – shaxsning o'qish, o'rganish va amaliy tajriba natijasida orttirgan bilimi asosida ilmiy tadqiqot, ya'ni yangi bilimlar va nazariyalarni aniqlash jarayonini samarali qilishga yordam beradi.

1.2. Tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar – ilmiy talqinlarda

Odamzodning olam to'g'risidagi tasavvurlari, bilimlari hayotiy tajriba va ilm-fan yutuqlari asosida boyib, mukammallashib boradi.

Olimlarimizning nomoddiy madaniy merosning tabiat va koinotga oid bilimlar, urf-odatlarga bilvosita va bevosita taalluqli ba'zi ilmiy ishlariga e'tiborni qaratsak, bunga yana bir marta guvoh bo'lamiz.

O'zbek folklorshunosligi asoschisi, professor Hodi Zarif (1905 – 1972) tadqiqotlarida xalqimizning og'zaki poetik ijodi bag'rida asrlar osha yashab kelayotgan tabiat va koinot bilan bog'liq bilimlar, urf-odatlar hayotiy ildizlarini ochib beruvchi kashfiyotlar ham ko'p. "O'zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari bo'yicha tekshirishlar" maqolasidagi ushbu talqinlar shu jihatdan diqqatga sazovordir:

"Qadimiy diniy e'tiqodlar va miflarni hisobga olmasdan o'zbek xalq ertaklari, topishmoqlari va dostonlaridagi ot obrazlarini to'g'ri tushunish va to'g'ri talqin etish mumkin emas...

O'zbek folklorida, shu jumladan, dostonlarda naslli ot ham suv bilan, ham yulduz bilan bog'lanadi... Otning suv bilan bog'lanishi juda qadimiy tushunchalarga borib taqalishini folklorning eng qadimiy janrlaridan topishmoqlarda ham ko'ramiz:

Suvday chopadi,
Manzilga eltadi.

Bu topishmoqning javobi – ot. Bu hol suv haqidagi topishmoqlarda ravshan aks etgan:

Tog'dan kelar toshday,
Arillagan otday.

(Suv).

Varianti:

Tog'dan kelar toshlar kabi,
Egarlangan otlar kabi.

(Suv).

Otasi egri-bugri,
Bolasi chopqin yo'rg'a.

(Daryo).

Bizning, bizning, bizning ot,
Bezanglaydi bizning ot,
Oyog'ida g'ul-kishan,
Guldiraydi bizning ot.

(Daryo).

Bir otim bor, bo'z,
Qora ko'rsa, kishnab kelar,
Ajriq ko'rsa, tishlab kelar.

(Qor).

Bultur ketgan bo'z otim,
Bu yil kelarmikan-da,
Oyog'ida qirq kishan,
Kishnab kelarmikan-da,
Ajriq, qamish ko'rganda,
Tishlab kelarmikan-da.

(Qor, yomg'irning tuman, yel bilan kelishi).

Shu munosabat bilan qadimgi Balx daryosining eramizdan ilgarigi nomi Zariasp ekanligini eslatib o'tish kerak bo'ladi. Bu misollar va ot haqidagi mifga ko'ra, barcha tulporlarning otasi suv ayg'iridir. Demak, tulpor ot suv ma'budi yoki suv ma'budi bilan yaqin munosabatda bo'lgan itohiy kuchlardan biri bo'lib, yaxshiliklarni himoya qilishda, yomonlik hamda yovuzliklarga qarshi kurashda yordam beradi.

Ot obrazining bu xususiyatlari uning suv xudosi Anaxit (Noxit) bilan aloqasi borligidan darak beradi. Balx daryosi -- bir komponenti "asp" so'zidan iborat -- Zariasp atalganidek, Zarafshon daryosi Anaxit, Daytya deb qayd etiladi. Amudaryo turkiy tilda O'kuz (qadim grek avtorlarining qaydida Uksus), "Ovesto"da Anaxit deyilgan. II-III asr avtori Kliment Aleksandriyskiy Baktriyada Afrodit -- Tanais nomli xotin ma'budaning haykalini ko'rganini yozgan. Tanais esa,-- qadim grek avtorlarining yozganlariga ko'ra -- Sirdaryodir.

Olimlarning tekshirishlariga ko'ra, Noxit O'rta Osiyodagi qadimiy mahalliy xudolar orasida juda katta o'rin tutgan. U barcha mavjudotning onasi bo'lib, yer va suv ma'budi hisoblanadi. Ekin va yaylovlarni suv bilan ta'minlash, hosilning ko'payishi, farovonlik Noxitning marhamatiga bog'liq deb tushunilgan. Noxit qimmatbaho kiyimlar, taqinchoqlar bilan bezangan go'zal xotin qiyofasida tasavvur etilgan" (31, B. 77 – 79).

Professor M.Jo'rayev "O'zbek mavsumiy marosim folklori" nomli o'quv qo'llanmasida (2008) – an'anaviy xalq taqvimini bilan bog'liq bo'lgan mavsumiy marosim folklorining ma'naviy qadriyatlar silsilasidagi ahamiyatini tadqiq etgan. Biz uning umumiy mazmunining qisqacha bayonini keltiramiz:

O'lkamizda dehqonchilik madaniyati va chorvachilik an'analari yuksak darajada taraqqiy qilgan, shuning uchun ham xalq taqvimining bir necha xil usullari kelib chiqqan. "Hisobdonlarning ma'lumotlariga qaraganda, ilgari ota-bobolarimiz vaqt hisobini yuritishda quyidagi usullardan foydalanishgan: 1) Yerning quyosh atrofidagi davriy aylanishiga asoslangan **shamsiy taqvim**; 2) Oy fazalarining o'zgarishi va harakatiga asoslangan **qamariy taqvim**; 3) mavsumiy qushlarning ko'klamgi uchib kelishi va kuzda issiq o'lkalarga qishlash uchun uchib ketish muddatlariga asoslangan "**qush qayi**" yoki "**dolg'a hisobi**"; 4) Hulkar yulduzi bilan oyning harakat yo'nalishidagi muayyan kesishuv muddatlariga asoslangan "**to'g'al**" yoki "**to'qush hisobi**"; 5) o'lkamizdagi daryolar sathining ko'tarilishi muddatlarini o'z ichiga olgan "**toshuv hisobi**"; 6) dehqonchilik yilidagi ekinlarni ekish, parvarishlash va o'rib-yig'ib olish muddatlarini anglatuvchi "**dehqon hisobi**"; 7) chorvadorlarning chorva yili davomida bajaradigan udum va amallarini o'zida mujassamlashtirgan "**chorva hisobi**"; 8) yoz va qishning eng issiq hamda eng sovuq qirq kunlik muddatlari bilan bog'liq xalq qarashlari asosida kelib chiqqan "**chilla hisobi**"; 9) O'zbekistonning tabiiy-iqlimiy sharoitida ekinlarning pishib yetilish muddatlarinin belgilovchi "**yuz hisobi**"; 10) fasllar almashunuvidagi fenologik kuzatuvlar mahsuli bo'lgan "**to'qson hisobi**"; 11) yulduzlar harakatini kuzatish asonosida kelib chiqqan "**yulduz hisobi**"; 12) "**muchal hisobi**" (17, B.5).

Ayni paytda el orasida fasllar bilan bog'liq "Qor xat", "Sherda", "Boychechak xabari", "Qozon to'ldi", "Navro'z", "Shox moylar", "Lola sayli", "Oblo baraka", "Sust xotin", "Choymomo", "Yo Haydar" kabi tabiat va koinot bilan bog'liq bilim va urf-odatlar negizi bo'lmish marosimlar shakllangan.

Ajdodlarimiz kalendar-taqvim yaratish uchun samoviy jismlar harakati va tabiat hodisalarini asos qilib olganlar. Xalqimizning juda qadimiy taqvimlari tabiat hodisalarini uzoq vaqt davomida muttasil kuzatib borish, katta hayotiy tajriba va turmush ko'nikmalari majmuasidir.

Xalqimiz yil fasllari va oylari, o'lkamizning tabiiy-iqlimiy sharoiti haqida juda ko'p maqollar, matallar va e'tiqodiy qarashlar yaratganlar. Bu hikmatlar hayotda o'z o'rnida qo'llanilgan.

Qadimgi ajdodlarimiz tafakkuri uchun xos bo'lgan xususiyatlardan biri barcha jonsiz narsalar, tabiat hodisalarini jonlantirish, ularga insonlarga xos ijobiy yoki salbiy xususiyatlarni nisbat berish bo'lgan. Shu sababli miflar, afsonalarda quyosh ham, oy ham insonlardek harakat qiladi. Aka shamol – katta chilla qila olmagan ishni o'yinqaroq uka shamol – kichik chilla bajarishga urinadi. Sevishganlar Xudo irodasi bilan baliqqa aylanib, Hut burjiga abadiy joylashib oladilar. Ayamajuzning bolalari uning shamol qopi bilan o'ynaydilar va h.

Jonlantirilgan tabiat hodisalarining ham odamlardan o'z talablari bor. Bu talablar esa irimlarni keltirib chiqargan.

Hisobdonlar tabiat hodisalarini avvaldan bilishga, o'z turmushlarida ulardan foydalanishga harakat qilishgan. Xalq taqvimlarini yaxshi bilish va ularni zarur vaqtda qo'llash foydadan xoli emas. "Biz har qanday marosim, urf-odat, irim-sirimlar, inonchlar tarkibida u yoki bu darajada arxaiik yoki zamonaviy diniy elementlar mavjudligini ma'qullab, o'zbek marosim folklori janrlarini tasnif qilish bilan bog'liq ilmiy qarashlar orasida professor T.Mirzayev tomonidan ilgari surilgan klassifikatsiya har jihatdan asosli deb o'ylaymiz. Olimning qayd qilishicha, o'zbek marosim folklori "mavsumiy marosimlar folklori", "oilaviy-maishiy marosimlar folklori" va "diniy-ibodat marosimlar folklori"ga bo'linadi... Xalq taqvimi va u bilan bog'liq folklor janrlarining mukammal tasnifini yaratish hamda har bir janrlarning o'ziga xos xususiyatlarini, tarixiy-genetik ildizlari, rivojlanish bosqichlarini tadqiq etish o'zbek marosim folklorining poetik tabiatini o'rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi", – deydi muallif va o'zbek xalq taqvimining tarixiy asoslari, dehqon va chorva hisobining o'ziga xos xususiyatlari hamda yil fasllari bilan bog'liq mavsumiy marosimlar folklorining janrlar tizimi xususida so'z yuritadi (17, B. 8-9).

Folklorshunos olimimizning "O'zbek xalq taqvimi va mifologik afsonalar" (1994) to'plami esa xalq taqvimiga bag'ishlangan maqolalar bilan boshlanganki, bu ilmiy va mantiqiy jihatdan har tomonlama asoslidir. Zero, jahondagi barcha mavsumiy marosimlar, – mahalliy xususiyatga ega bo'ladimi, xalqaro miqyos kasb etadimi, – avvalo, yil fasllarini, haftalarini

aniqlovchi, ularning xususiyatlarini belgilab beruvchi vaqt hisobi – taqvimlarga asoslanadi.

Muallif qadimgi ajdodlarimizning an’anaviy vaqt hisobi – xalq taqvimi hayotiy hodisalarga – quyosh va oy harakati, yulduzlar holatiga muvofiq ravishda yaratilganligini dalillab bergan.

Olim uqtirib o’tadiki: ajdodlarimiz samo jismlarining vaqtning ma’lum bir davrlari – oyda, haftada, hatto ma’lum bir kunda yerdagi hayotga o’ziga xos ta’sir ko’rsatishini obdon anglaganlar, fasllar, chilla, oy, haftalarda tabiatda kechadigan o’zgarishlar, o’simliklar va jonivorlar holatiga ta’siridagi barqaror takrorlanishlarni – qonuniyatlarni uqqanlar. Odamlarning salohiyati, kuzatish va umumlashtirish qobiliyati bir xil bo’lmagan. Osmon yoritqichlarining ma’lum bir vaqtdagi harakati, holati bilan yerdagi barqaror, ba’zan istisno tarzidagi sababiy o’zgarishlarni puxta o’zlashtirgan tajribakorlar dehqonchilik va chorvachilikda kelgusida kechadigan hodisalarni avvaldan ayta olganlar. Shunday bilimdonlar – hisobdonlarning bilimlari tufayli ajdodlarimiz tabiat hodisalari ofatidan saqlanish, ulardan o’z manfaatlari yo’lida ma’lum darajada foydalanish imkoniga ega bo’lganlar.

Muallif xalq taqvimi kelib chiqishining tarixiy-mifologik, hayotiy asoslarini, u bilan bog’liq urf-odat, marosim, amaliy harakatlarning sabablarini izlab, aniqlagan. Ajdodlarimiz qadimdan fazo bilan zamin hayoti o’rtasidagi mustahkam bog’liqlikni idrok etib, uni asotirlar, afsonalar, ertaklar, qo’shiqlarda badiiy ifoda etganlarini misollar bilan ko’rsatgan (18).

Professor M.Jo’rayevning yana bir kitobi “Navro’z bayrani” (2009) xalqimizning bu ulug’ kun bilan bog’liq qarashlari haqida ma’lumot beradi. Navro’zga bevosita uzviy tarzda, boychechak, qizil gul, sumalak sayillarini tahlil etadi. Sumalak haqidagi afsonalar ko’p va ularda islomgacha bo’lgan qarashlar ham, islomiy qatlamlar ham mavjud. Tub mohiyatni aniqlash niyatida muallif “sumalak” so’zining etimologik ma’nosiga alohida to’xtaladi. Mahmud Koshg’ariy, zardushtshunos Meri Boys fikrlariga tayanib, “sumalak” qadimgi turkiy so’z bo’lib, u «arpa yoki bug’doy ma’nosini anglatadi va sumalak muqaddas taom», degan xulosaga keladi. Olimning xulosasiga ko’ra, Navro’z va sumalak pishirish udumi o’lib tiriluvchi tabiat haqidagi ko’hna e’tiqodiy qarashlar natijasidir. U qiyos uchun – qadimgi Misrdagi Osiris, Finikiyadagi Adonis, Yunonistondagi Dionis haqidagi tasavvurlar va ular bilan bog’liq urf-odat, marosimlarni keltirgani ham o’rinli bo’lib, xalqimizning Navro’z haqidagi qarashlari tarixi qardoshlarimiz mifologik tafakkuri bilan bevosita, turli

jahon xalqlari e'tiqodlari, umuminsoniy qadriyatlar bilan bilvosita bog'liqligini ayon qiladi.

Kitobda sumalak haqidagi afsonalar, u bilan bog'liq urf-odatlar, ularning kelib chiqishi, «sumalak beviti» qo'shiqlari to'g'risida fikr bildiradi. Sumalak marosimi bilan bog'liq «Ashshadarozi» nomli xalq o'yini tahlil etiladi. O'yin nomidagi "asha" so'zi «Avesto»da uchrashi va u haqiqat, ezgulik, halollik ma'nolarini ifodalashi, olov va quyosh homiysi, ezgulik ilohasi, hosildorlik ramzi, Axura Mazdaning qizi Ashani anglatishi haqida yozadi.

Muallif an'anaviy ko'pkari o'yini haqida kuzatishlar olib borar ekan, uni Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asaridagi qish bilan yoz munozarasiga qiyoslaydi, qadimgi Xitoy solnomachilari tomonidan bitilgan «Tan sulolasining tarixi»dagi ma'lumotlarga asoslanib, bir odatni keltiradi. Bu odatga ko'ra, qadimgi Farg'onada Navro'z kuni el ikki tarafga bo'linib, har tomondan bittadan jasur, botir, mohir qilichboz o'rtaga tushib, jang boshlar ekan. Bu jangdagi taraflarni hosildorlik va qurg'oqchilik timsoli deb talqin qilar ekan, bu odat ko'pkari o'yinining tarixiy asoslaridan biri bo'lsa kerak, degan fikrni olg'a suradi olim.

«Dastlab yilboshida ijro etiladigan ramziy o'yin hisoblanadigan ko'pkari, -- deb yozadi u, -- keyinchalik o'zining muqaddas an'ana sifatidagi ahamiyatini yo'qotgan hamda xalqimizning barcha bayram va hayitlari, to'y-hashamlarining tomosha unsuriga aylanib ketgan. «Ko'pkari» so'zi ham aslida «ko'kbo'ri» bo'lib, qadimgi turkiylar orasida mo'tabar sanalgan jonzot sifatida e'zozlangan bo'ri haqidagi tasavvurlarga bog'liqdir. Chunki turkiy qavmlar afsonalariga ko'ra, O'g'uzxon ko'kbo'ri bilan uchrashib, dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikni o'rganib, farovonlikka erishgan kun yilboshi qilingani uchun o'sha bayramning ramziy o'yinlaridan birini ham muqaddas jonivor nomi bilan «ko'kbo'ri» deb atashgan» (19, B. 153).

Muallif o'rni-o'rni bilan -- turkiy xalqlardan boshqa -- jahon xalqlari taqvimlarining kelib chiqishi tarixiga ham qiyosiy to'xtalgan va ular o'rtasidagi umumiy jihatlarni ko'ra olganki, bu akademik V.M.Jirmunskiyning tarixan bir-biridan bexabar bo'lgan xalqlar ijodidagi umumiyliklar taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida ijtimoiy, tarixiy-folkloriy jarayonlarning yaqinligidan kelib chiqqan, degan xulosasini yana bir bor tasdiqlaydi.

Professor K.Imomovning "O'zbek xalq nasri poetikasi" (2008) monografiyasi ming yillar davomida shakllanib, badiiy-estetik qarashlar tizimi sifatida takomillashib kelgan xalq og'zaki poetik ijodi epik

an'analari, ajdodlarimizning butun tarixi davomida namoyon bo'lgan dunyoqarashi, turmush tarzi, maishiy hayoti va milliy o'ziga xosligi tadrijini mavzu doirasida ilmiy dalillash maqsadida yaratilgan.

Monografiyaning "Chaqaloqni o'g'irlash, kuchukcha bilan almashtirish motivi: urf-odat va badiiy to'qima" qismidagi bevosita bizning mavzumizga oid o'rinlarini keltiramiz:

"Sehrli etraklarda chaqaloqni kuchukcha bilan almashtirish g'ayritabiiy tug'ilish motivida yetakchi rol o'ynaydi. Bu voqealar qadimiy, ayni paytda real, hayotiy zanninga ega bo'lib, tug'ilgan choqaloqni o'g'irlash odati zamirida paydo bo'lgan. Ana shu odat zardushtiy dinining asosini tashkil etgan dual tushuncha zaminida yuzaga kelgan. Ma'lumki, qadim zamonlarda yangi tug'ilgan bolani saqlab qolish, betoblikka davo topish qiyin bir paytda avom xalq uning nobud bo'lish sababini tushunmagan, bu hodisani "yomon ruhlar" ta'siridan deb bilgan. Bunday qarashning demonologik tushunchalar hukmron zamonda yaratilganligi shubhasizdir. Chunki o'sha vaqtda "ruhlar insoniyatga azaliy dushman, doimo zarar keltirishiga harakat qiluvchi vosita hisoblangan". Shundan so'ng chaqaloqni "yomon ruh" ta'siridan saqlash, himoya qilishning turli xil usul, vositalari yuzaga kelgan va odat tusini olgan. Bu udum o'zbeklar orasida mavjud bo'lib, tug'ilgan bolani "o'g'irlash, bekitish priyomi"ni anglatadi. Kishilar "agar tug'ilgan bola turmasa, o'la bersa, bu yomon ruhlar ishi, ularni aldash, laqillatish kerak", deb qarashgan. Nihoyat, "aldash"ning quyidagi usuli yuzaga kelgan, an'anaga aylangan. "Ayollardan biri tug'ayotgan xotin ko'rmasligi uchun uning ko'zini qo'l bilan bekitadi. Qo'shni xotin tug'ilgan bolani o'sha zahoti lattaga o'rab, o'z uyiga olib chiqib ketgan va uch kun saqlagan. Uch kun o'tgach, olib kelgan". Bu odatning asosiy maqsadi yomon ruhni chalg'itish, tug'ilgan bolani o'limdan saqlab qolishni nazarda tutgan. Kishilarning bilishicha, "endi yomon ruh bu chaqaloq yangi tug'ilgan emas, balki almashtirilgan bola deb tushunadi". Mazkur udum animistik tasavvurga ishonch zaminida paydo bo'lgan. Bu odatning keyin paydo bo'lgan yopiq namunasida mifologik mazmun o'rnida ijtimoiy ma'no paydo bo'lgan. Boshqacha aytganda, motiv feodal jamoa tartibotidan kelib chiqqan va norasmiy merosxo'rne yo'q qilish maqsadini ifoda etgan.

Darhaqiqat, tug'ilgan chaqaloqni kuchukcha bilan almashtirish udumi, tarixan "chaqaloqni shartli o'g'irlash" asosida yuzaga kelgan."

Tug'ilgan chaqaloqni kuchukchaga almashtirish motivi keyin keladigan voqea va hodisalar – judolik, sarson, sargardonlik, nihoyat, qayta topishish kabi situatsiyalarni vujudga keltirgan.

Ma'lumki, it qadimgi turkiy qavmlar orasida muqaddas kult sanalgan. "Avesto"da uni aziz, ilohiy muqaddas bilib, marhamatiga sig'inishning ajoyib namunalari saqlangan. Kitobning Vendidod qismida it "chinakam taqvodor, iltifotli yaratilgan, beozor, o'tkir tishli maxluq". Ana shu "it, kuchukcha yangi tug'ilgan chaqaloqni zararli ruhlar ta'siridan saqlovchi, ishonchli qo'riqchi sanalgan". E'tiqodlarga ko'ra, itning nigohi nopok jinslarni yo'q qiladi. Ana shu tushunchadan kelib chiqib, bola turmagan oilada chaqaloq tug'ilishi bilan uni bekitishgan, o'rniga kuchukchani qo'yishgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Almashtirish hodisasi odat sifatida uzoq yashagan, keyin yo'qolib ketgan. Biroq, ayrim joylarda uning rudimentlari saqlanib qolgan. Shulardan biri tug'ilgan bolaga dastlab kiydirilgan ko'ylak "it ko'ylak" atalgan. Doya buvi ko'ylakni avval kuchuk bo'yniga kiydiradi. Bu o'rinda chaqaloqning jinsiy mansubiyatiga qarab ish ko'riladi. Agar "it ko'ylak" qiz bolaniki bo'lsa, urg'ochi it, o'g'il bolaniki bo'lsa, "o'g'il kuchuk" yelkasiga tashlanadi. Bundan tashqari, "tug'ilgan bolaga yomon nom qo'yish, "it, kuchuk" deb ism qo'yish odati ham hukm surgan. Xullas, tug'ilgan bolani bekitib, uning o'rniga kuchuk bolani qo'yish, "it atash", "it ko'ylak" kiydirish kabi rasm-rusumlar chaqaloqni nobud bo'lishdan saqlash, himoyalash maqsadida vujudga kelgan".

Muallif o'zbek folklori epik janrlarining deyarli barchasida (mif, afsona, ertak, epos, demonologik hikoyalarda) an'anaviy ishonch keng ommalashganini, qadimgi animistik, totemistik qarashlar ifodalanganini, xususan, tabiat va koinot bilan bog'liq bo'lgan ovchilik, chorvachilikka aloqador bilim va ko'nikmalar mujassam topganini bevosita va bilvosita tahlil etgan (15, B. 139 – 142).

Professor A.Ashirovning "O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari" (2007) monografiyasi o'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va diniy marosimlari tahliliga bag'ishlangan. Muallif xalqning turmush tarzi – oilaviy marosimlar, xo'jalik an'analari va moddiy madaniyati kesimida islomgacha bo'lgan hamda islomiy e'tiqodni tarixiy-etnografik materiallar asosida yoritib berishga harakat qilgan. Tabiatdagi barcha narsa-hodisalar muayyan sehr-joduga ega deb tasavvur etgan qadimgi odamlar ma'lum predmetlar, mifologik obrazlar yoki xatti-harakatga nisbatan qo'yilgan taqiqlarga amal qilib yashashgan. Bu tartibga ko'ra, taqiqlangan ne'matlarni tanovul qilish, aytilishi man etilgan ismlar (masalan, qabila boshliqlari, ma'budlar, ilohlar, kohin-shomonlar, marhum ajdodlar va h.k.)ni tilga olish; qatag'on qilingan narsalarga teginish, shuningdek, tilga olinishi taqiq etilgan so'zlarni aytish muayyan ko'ngilsizliklarni keltirib

chiqaradi, deb ishonishgan. Boshqacha qilib aytganda, tabuga amal qilmaslik yomon oqibatlarga olib kelishidan xavotirlangan ibtidoiy kishilar taqiqlar orqali tabiat kuchlarining mo'jizaviy kuch-qudratini o'zlariga moyil etishga, bo'ysundirishga intilganlar.

Animistik tasavvurlar: narsa-hodisalar, jonivorlar, o'simliklar, tog'u toshlar, daryo va irmoqlarning hammasi jonli ekan, ular odamlar tomonidan aytilgan so'zlarni eshitadi va tushunadi, degan qarashni shakllantirgan. Shuning uchun ham qadimgi ovchi o'z maqsadini oshkor etmagan – bundan cho'chigan, hatto so'rganlarga ham chalg'ituvchi javob bergan, ya'ni ovlanaajak jonivorlar xavfdan xabar topib qochib ketadi va ov baror olmaydi yoki jonivorlarga «egalik» qiladigan homiy kuchlarning jahli chiqib, menga zarar yetkazishi mumkin, deb o'ylaganlar. Xullas, ovchilik bilan bog'liq so'z tabulari sir saqlash, turli jonivorlarning nomlarini «yashirin til»da ifodalash, ovlangan hayvonlar ruhining qasosidan saqlanish, omad kelishini ta'minlashni nazarda tutgan.

So'z tabusining yana bir muhim jihati shundan iborat bo'lganki, aytilishi taqiqlangan tushuncha va atamalar o'sha predmet yoki hodisaning mohiyatiga ta'sir ko'rsatadi deb tasavvur qilingan so'zlar bilan almashtirilgan. Xalqimiz orasida boyo'g'lini «murodali» tabu atamasi bilan atash an'anasining kelib chiqishiga ham shu holat asos bo'lgan. Chunki xalq qarashlariga ko'ra, boyo'g'li sayrasa – yomonlikka yo'yadilar va bunday paytda uni haydashga harakat qiladilar. Bu qushni «murodali» deb nomlash orqali esa uning sayrashini yaxshilik belgisi sifatida talqin qilishga intilish maqsadi yotadi. Bu haqda so'zlar ekan, A.Ashirov D.K.Zelenin ma'lumotiga asoslanib, beloruslar chumchuqni «so'qir» ma'nosini ifodalovchi so'z bilan ataganlari, go'yo shunday deyilsa, chumchuqlar donli ekinlarni ko'rmasdan, hosilga ziyon yetkazmaydi deb tasavvur qilganlarini eslatadi.

Ona tilimizdagi «*devorning ham qulog'i bor*» iborasi zamirida ham so'z tabusi mujassamlashgan. Animistik tasavvurga ko'ra, uy egalari yovuz kuchlar «eshitib qolmasin» (ya'ni odamlarning gapini «eshitgan» devor xabar yetkazmasin) deb, ayrim tushunchalar o'rniga tabulashtirilgan so'zlarni qo'llaganlar. Masalan, tog'li oltoylik ovchilar ayiq oviga ketayotganini hech kimga, hech nimaga bildirmaganlar, hatto o'rmonda boshqa jonivor duch kelsa-da, uni otmaganlar. Chunki ovlangan jonivorning ruhi ayiqni ogohlantiradi va u darhol qochib ketadi, deb o'ylaganlar. Ular ov chog'ida bir-birlari bilan ham ayiq to'g'risida so'zlashmaganlar, zero, tog'li oltoyliklar tasavvuricha, ayiq doimo yerga quloq tutib, hamma gaplarni eshitib turar, kimki ayiqni tabulashtirilgan

soʻz bilan emas, balki haqiqiy nomi bilan atab aytsa, u darrov eshitar emish. Muallifimiz «Yer – ayiqning qulogʻi» maʼnosidagi ibora ham shundan darak berishini eslatib oʻtadi (10).

Xalqimizning qadimiy eʼtiqod va marosimlari zamiridagi tabiatga va koinotga oid bilim va urf-odatlar mohiyatidagi hayotiy hikmatlar ham hozirgi avlodlar tomonidan tobora teranroq va har taraflama ilmiy oʻrganilishi, hech shubhasiz, xayrli ishdir.

Filologiya fanlari doktori SH.Turdimovning “Goʻroʻgʻli” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari” (2011) monografiyasida, jumladan, “Goʻroʻgʻli” dostonlarining fabulasi asosini tabiiy ravishda oʻlib-tiriluvchi tabiat bilan bogʻliq mif va marosimlar tashkil etishi tahlil etilgan.

Nomoddiy merosning muhim sohalaridan biri – tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlarni majmuyi oʻrganish nuqtai nazaridan, monografiyaning “Quyosh turkum miflari, mavsumiy marosimlar va “Goʻroʻgʻli” eposi” bobi qiziqarlidir.

Muallif oʻzbek xalqi orasida bugungi kunda ham amal qilayotgan marosim va bayramlardagi quyosh turkum miflari, mavsumiy marosimlar bilan aloqador jihatlarni “Goʻroʻgʻli” eposiga qiyoslash orqali dostonning bevosita ana shu – quyosh turkum miflari va ushbu tizim bilan bogʻliq mavsumiy marosimlar, ishonch-eʼtiqodlar zamirida shakllanib, mustaqil badiiy-estetik hodisa sifatida taraqqiy topganligini yoritishga harakat qiladi. Oʻlib-tiriluvchi tabiat bilan bogʻliq xalqimizning qadimiy dunyoqarashlari va ularning marosim shaklidagi anʼanalari hamda “Goʻroʻgʻli” dostonidagi asosiy motiv va obrazlar talqini oʻrtasidagi uygʻunlik “Goʻroʻgʻli” turkumi asosi oʻz zaminimizda, xalqimizning koʻlna eʼtiqodiy ishonch va dunyoqarashlariga esh hofatda paydo boʻlganini, oʻlib tiriluvchi borliq (tabiat) bilan bogʻliq tasavvurlar tizimining oʻzagida quyosh topinchi markaziy oʻrin egallaganini uqtiradi.

Olim oʻz tadqiqotini yakunlar ekan, jumladan, ushbu xulosani ham keltiradi:

“Arxaik syujet zamiridagi mif talqinida Goʻroʻgʻli – Quyosh oʻgʻli bir yillik mavsumiy muddatning uch oy davomida yer qaʼrida yetilib, koʻklam bilan birga tugʻilib, uch oy (koʻklam fasli) tetapoya boʻlib, uch oy (yoz) barobarida voyaga yetib, ulgʻayib (qayta homila topib), navbatdagi uch oy (kuz)da kamolga erishib, qartayib, homilasi olti oylik boʻlgach, qayta oʻz makoni – gʻorga (qish qoʻyniga) kirib uyquga ketadi, uch oy (qish) davomida oʻlik tanada yetilgan homila qish nihoyasida qaytadan tugʻiladi, deb tushunilgan. Goʻroʻgʻlining gʻayriqutbi – «Oʻzga olam –

zulmat dunyosining o'g'li» esa kuz kirishi bilan tug'ilib, uch oy qish to'liq yetilib, ko'klam adog'ida o'z makoniga kirib, kuzda qayta tug'iladi, deb tasavvur qilingan. Kuzu qish batnida yoz yetilib dunyoga keladi va ko'klam yoz ichida qish yetilib qayta tug'iladi, degan tushuncha qat'iy amalda bo'lgan. Kosmosdan xaos, xaosdan kosmos paydo bo'lishi haqidagi universal model hamma hodisada birdek amal qiladi, deb anglangan, talqin etilgan...

Nafaqat bosh qahramon va epik homiylar, balki dostondagi qahramon g'ayriqutbi, raqibi, ko'makchilari, epik ot, yor obrazlarining tadqiqi «Go'ro'g'li» eposining ko'hna ildizlarga ega ekanligini, doston yadrosining quyosh turkum miflari hamda marosimlariga va animistik tasavvurlarga bog'liq eradan avvalgi ming yilliklarda paydo bo'lganligini asoslaydi.

«Go'ro'g'li» dostonining yadrosi, syujeti va obrazlar tizimining mifologik hamda tarixiy asoslari qadim-qadimdan Turkiston kengliklarida yashab kelgan ajdodlarimizning tasavvurlari, dunyoqarashlariga bog'liq sak, massaget va o'g'iz epik an'analari asosida eradan avvalgi ming yilliklarda yaratilib, bosqichma-bosqich sayqal topib, to'liq badiiy-estetik sathga o'tdi. Arxaik eposning navbatdagi talqinlaridan bir shoxobchasi Markaziy Osiyodan Kavkaz va Kichik Osiyoga ko'chgan o'g'iz qabilalari bilan u hududlarga ham tarqaldi, yangilandi. So'nggi talqinlar o'zaro madaniy-adabiy aloqalar natijasida Markaziy Osiyo versiyalariga ham ma'lum ta'sirini o'tkazdi. O'zbek «Go'ro'g'li» dostonining qahramoni tug'ilishi tabiiy homila talqinini olgan versiyalarda bu holat aniq sezilsada, tug'ilish g'ayritabiiy homila talqinini olgan versiyalar qadimiy o'zanda rivojlanib, ta'sirlardan xoli qoldi. Ushbu versiyalarda saqlangan qadimiy motiv va unsurlar doston genezisini aniqlashda tayanch omillar bo'ldi.

O'zbek xalqi orasida bugungi kunda ham amal qilayotgan marosim-bayramlardagi quyosh turkum miflari, mavsumiy marosimlar bilan aloqador jihatlarni «Go'ro'g'li» eposiga qiyoslash dostonning bevosita ana shu miflar va ushbu tizim bilan bog'liq mavsumiy marosimlar, ishonch-e'tiqodlar zamirida shakllanib, mustaqil badiiy-estetik hodisa sifatida taraqqiy topganligini ko'rsatdi. Xususan:

- Navro'z bayrami, ko'pkari musobaqasi, marosim taomlari, turli qo'shiq-aytim va raqslar mag'zidagi xalqning quyosh turkum miflari va o'lib-tiriluvchi borliq bilan bog'liq tasavvurlar olamining «Go'ro'g'li» dostonining asosiy motiv va obrazlari talqiniga uyg'un kelishi dostonning ushbu ishonch va dunyoqarashlar zamirida paydo bo'lganligini tasdiq etadi;

– quyosh topinchi bilan aloqador qadamjolar, yetti qo‘rut, Hulkar, Qambar to‘g‘al yil hisoblari, zardushtiylik va xaloskor qahramon haqidagi ishonch-e‘tiqodlar «Go‘ro‘g‘li» dostoni voqeligiga shunchaki o‘xshash emasligi, ularning yagona manbaga egaligini ko‘rsatadi.

«Go‘ro‘g‘li» dostoni davrlar osha o‘z zamonasi talablariga mos ravishda sayqal topdi, motivlar yangicha izohlar oldi, lekin syujetning tayanch halqalari asliga uyg‘un ravishda saqlanib keldi. Ushbu holat doston genezisi va tadrijiy bosqichlarini aniqlashda muhim rol o‘ynadi.

Doston asosida turgan rif tabiat hodisalarini izohlab, Go‘ro‘g‘li dastlab tabiat qudratining timsoli sifatida namoyon bo‘lsa, voqelik epik sathga ko‘chgach, u endi ijtimoiy hodisani aks ettiruvchi xalq va saltanat taqdirining badiiy «solnoma»siga aylandi” (38, B. 217–220).

Tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar – folklor badiiy zamirida bezavol va bardavom qadriyatlar sifatida yashab kelar ekan, qachondan boshlangani olis tarix qa‘rlarida yashirin bo‘lib qolgan bu tadrijning nurli zuhurlarini mifologik naqlarda ham ko‘rishimiz mumkin.

Lekin bu bilan bog‘liq misollarni keltirishdan avval ajdodlarimizning tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlari, butun jahon xalqlarida bo‘lgani kabi, olamni bilishga qiziqishdan kelib chiqqanini, shuning natijasida yig‘ilgan ilmi va tajribasidan u ham o‘z hayotiy ehtiyojlarini amalga oshirish jarayonida foydalanganini aytib o‘tishimiz joizdir. Shu munosabat bilan, Buxoro arki hisorining bino etilishiga doir bir voqeani eslaylik.

Narshaxiy 943 – 944 yillarda yozgan “Buxoro tarixi”da bu haqda, jumladan, quyidagilar yozilgan:

“... mana shu rivoyatga ko‘ra bu hisorni Siyovush bino qilgan, ba‘zilari esa Afrosiyob bino qilgan deganlar. (So‘ng) bu hisor buzilib ketib, ko‘p yillar vayronligicha qoldi... Bidun Buxorxudot taxtga o‘tirganidan keyin, odam yuborib bu hisorni tuzattirdi va o‘z nomini temirga yozdirib qasrning eshigiga mahkam o‘rnatirdi. Shu xat bitilgan temir tarjimonning* zamonigacha o‘sha qasr eshigida mavjud edi... Hisorni vayron qilganlarida u eshikni ham buzib yuborganlar... Bidun Buxorxudot u qasrni bino qilganida buzilib ketdi, qaytadan bino qilgan edi, yana buzildi. U necha marta bino qilmasin yana vayron bo‘laverdi” (34, B. 104).

Ana shunda tabiat va koinot haqidagi bilimlar qo‘l keladi.

* Tarjimon – Narshaxiyning “Buxoro tarixi”ni 1128 yili arab tilidan fors tiliga tarjima qilgan Abu Nasr Ahmad.

“Hukamolarni yig‘ib ulardan maslahat so‘radilar. Ular bu qasrni osmondagi yetti qaroqchi yulduzlari shaklida yettita tosh ustun ustiga qurishga qaror qildilar; shu shaklda (qurilgandan keyin) qasr buzilmadi” (34, B. 104).

Yetti qaroqchi yulduzlaridan andoza olib qurilgan bu qasr nihoyatda xosiyatli bo‘ladi.

“Yana bir ajoyibi shuki, – deb ta’kidlanadi “Buxoro tarixi”da, – bu qasr bino qilingandan beri bunda hayot kechirgan hech bir podshoh mag‘lubiyatga uchragan emas, aksincha, hamisha g‘alaba qozongan. Yana bir ajoyibi, bu qasrni bino qilganlaridan beri na kofirlar davrida va na islomiyat davrida – biror podshoh ham uning ichida o‘lmagan; podshohning ajali yetgan vaqtda biror sabab yuz berib u qasrdan tashqariga chiqqan va boshqa bir joyda vafot topgan – bu qasr bino qilinganidan to vayron bo‘lgunicha shunday bo‘lib kelgan” (34, B. 104).

“Yetti qaroqchi” maqolasida bu voqeani eslagan holda, filologiya fanlari doktori, professor M.Jo‘rayev xosiyatli deb qaraladigan yetti raqamiga e‘tiborini qaratib, shunday deb yozadi: “Tasodifni qarangki, qasrning o‘zi ham, – manbalarda ko‘rsatilishicha, VII asrda bunyod etilgan ekan” (49).

Xalqning tabiat va koinotga oid bilim va ko‘nikmalari aksariyat hollarda jonli til orqali – og‘zaki yo‘sinda avlodlar osha yashab kelgan.

Filologiya fanlari doktori SH.Turdimov o‘zi yozib olgan – yer, osmon, yulduzlarning paydo bo‘lishi, tuzilishi va o‘zaro munosabatlari bilan bog‘liq 10 mifologik naqlni e‘lon qildi (50). Ularning quyidagilarini eslaylik:


“1. Yer(ning) ustidan osmon do‘ppiday yopib turadi. Eng balanda, o‘rtada Temir qoziq yulduzi turadi. Jami yulduz yer bilan Temir qoziqning (atrofida) chir aylanadi. Yerning ostidayam bir Temir qoziq yulduzi bor. Ikki Temir qoziq tortishib, yer qimirlamay turadi....

3. Yetti qaroqchi – yetti yulduz. Cho‘michga o‘xshaydi. Hulkar yulduzning birovini o‘g‘irlab olib qo‘ygan.

4. Hulkar avval yetti yulduz bo‘lgan. Birovini Yetti qaroqchi olib, oltitasi qolgan. Yetti qaroqchi Hulkar bilan Qambarning o‘rtasiga tushib, ularni yuz ko‘rmas qilib qo‘ygan. Avval ular bir-birini yaxshi ko‘rishgan, oshiq-ma‘shuqa ekan. Hozir Hulkar botsa, Qambar chiqadi. Hulkar – qiz, Qambar – yigit, deyishadi. Oxiri qiyomatda Qambar bilan Hulkar ko‘risharmish.

5. Hulkar bir to‘p – oltita yulduz.

6. Qambar to‘qqizta yulduz. Ko‘rinishi bunday:



1) bu uch yulduz Qambarning og'zi. 2) 2-raqam ostidagi yulduz Qambarning o'ti. 3) oxirgi uch yulduz Qambarning keyti (dumi), deyiladi" (50).

Olim bu mifologik naqlarni ilmiy jihatdan o'rganib, jumladan, shunday xulosalarni o'rtaga tashladi:

"Birinchi naql, eng avvalo, ajdodlarimiz tasavvurida yerning koinotdagi o'rni qanday bo'lganligini ko'rsatib beradi... 2-, 3-, 4-, 5-, 6-naqlar yuqoridagi umumiy tasavurning xususiy qismlari – kosmosdagi jismlar tartibi, muvozanati, munosabatidan xabar beradi... Bu holat olamning asosini tashkil etuvchi EZGULIK va YOVUZLIK o'rtasidagi uzluksiz kurashning kosmik ko'lamdagi talqinidir" (50).

Olim milliy mifologik naqlarimizni jahon mifologiyasi kesimida talqin qilishga intiladi:

"Butun dunyo mifologik tasavvurlarining asosini tashkil etuvchi kosmosdan kaosning hosil bo'lishi, yana kaosdan kosmosning yaratilishi va bu uzluksiz harakat biz yuqorida keltirgan naqlarda aniq tasvirlab berilgan. Bu esa ushbu naqlar mazmunan qadim dunyo mifologik tasavvurlari bilan hamohang ekanligini ko'rsatmoqda" (50).

Keng o'quvchilar ommasini uchun nihoyatda qiziqarli bo'lgan mifologik naqlarni sharhlar ekan, muallif quyidagi fikr-mulohazalarni ham bildiradi:

"Bu tizimda muhim o'rin egallovchi yana bir vakil insondir. Insonning paydo bo'lishi, yashashi 9-10-naqlarda qisman o'z ifodasini topgan", – der ekan, muallif ularda aks etgan "tasavvurlar ulkan mifologik tizimning biz ko'rib turgan parchalarigina xolos", – deb ta'kidlaydi (50).

Shu bilan birga, o'quvchini "tadqiqotchilar nazaridan chetda qolib kelayotgan bu kabi naql va rivoyat"larni yig'ishga, ko'pchilik e'tiboriga yetkazishga da'vat etadi:

"Demak, xalqimizning qadim mifologik tasavvurlari haqida xabar beruvchi har bir naql bugungi kunda tafakkurlarimiz sarchashmalarini yanada oydinroq anglashimizga, o'zligimizni teranroq idrok etishimizga yordam beradi" (50).

Oradan 10-11 yil o'tgach, astronom S.Azizov folklorshunos SH.Turdimovning "Sir to'la dunyo (Olamning tuzilishi va osmon yoritgichlarining paydo bo'lishi haqidagi mifologik naqlar)" maqolasida

keltirilgan 3-,4-,5-,6-naqlar va ularga berilgan sharhlar asosida amalga oshirgan tadqiqoti natijasini – “Qambar turkumida bir yulduz” (47) maqolasini e’lon qildi.

“Shuni alohida qayd qilmoq kerakki, – deydi falakshunos, – maqolada keltirilgan falakiyotga oid ma’lumotlar nihoyatda muhim hujjatlardir. E’tiboringizni quyidagi jihatlarga alohida qaratamiz.

1. Aytuvchi... eng kamida bundan yuz yil avvalgi avlodan-avlodga o’tib kelayotgan tasavvurlar haqida ma’lumot bermoqda.

2. Samodagi ma’lum yulduzlar to’dasi “Qambar” yulduz turkumi nomi bilan qayd etilmoqda.

3. “Qambar” yulduz turkumining samodagi tasviriy shakli aniq keltirilmoqda.

4. “Qambar” yulduz turkumi bilan bog’liq mifologik sharhlar berilmoqda.

5. “Qambar” yulduz turkumining 2-raqamli yulduzi “Qambar”ning “O’ti” (o’t-olov) deb izohlanishi ham o’ta e’tiborli ma’lumotlardan hisoblanadi.

6. “Qambar” va “Hulkar” Yetti qaroqchiga nisbatan qarama-qarshi tarafda joylashganligi va biri chiqqanda ikkinchisi botishi qayd qilinmoqda” (47).

Muallif o’z fikrlarini falakshunoslik nuqtai nazaridan asoslab, tahlilni shunday davom ettiradi:

“Bu bayon etilganlarning tahlilidan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1. Samoda, 6-naqlda tasvirlangan “Qambar” yulduz turkumi shaklidagi yoritqichlar mavjud. U zodiak tarkibiga kiradi va “Chayon” nomi bilan ataladi.

2. “Qambar”ning “O’ti” yulduzi, “Chayon”ning eng yorug’ yulduzi Antaresga mos tushadi.

“Qambar” – “Chayon” osmonda Hulkarga nisbatan qarama-qarshi tarafda joylashgan va haqiqatan ham ularning biri botganda ikkinchisi chiqadi...”

Falakshunos o’z tahlilini dalillash maqsadida kerakli ilmiy-tarixiy ma’lumotlarni keltiradi:

“Falakiyot tarixiga oid manbalarda “Chayon” va “Antares” haqida muayyan ma’lumotlar bor.

Samodagi chiroyli yulduz turkumlaridan biri – “Chayon” yulduz turkumi va uning eng yorug’ yulduzi “Antares” qadim zamonlardayoq kuzatuvchilar e’tiboriga tushgan. Quyosh tizimidagi katta sayyoralardan biri o’zining qizg’ish tusi uchun ko’hna Rimda urush xudosi Mars nomi

bilan atalgan. Qadimgi Italiyada u, shuningdek, hosildorlik ma'budi, deb ham hisoblangan. Bu ma'bud xohlasa hosillarni yo'q qilishi, mollarga o'lat yuborishi va, istasa, bu ofatlarni bartaraf etishi mumkin bo'lgan. Uning sharafiga Rim yilnomasining birinchi oyi Mars deb atalgan. Mars qadimgi yunon mifologiyasida urush ilohi Ares nomi bilan qiyoslangan. "Chayon" yulduz turkumining yorqin-qizil tusda tovlanuvchi bosh yulduzi tarixda lotincha "Antares" nomi bilan mashhur. "Antares" so'zi yunon tilida "Ares" (Mars) "o'miga" ma'nosini bildiradi. Antares Mars kabi tusda va uning samodagi harakat yo'li Marsning harakat yo'li yaqinida. Ma'lumki, qizg'imtir rang olov-o't rangi hisoblanadi. Sa'mi Turdimurod o'g'li ma'lumotida ham Qambar – Chayon yulduz turkumining bosh yulduzi o't-olov-qizg'imtir tusda deb ta'kidlangan. Naqlni aytuvchi qayd qilgan "O't" yulduzi, qadimgi yunon va lotin afsonalarida e'tirof etilgan "Antares" Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy yodgorligi "Avesto" kitobida tasvirlangan yulduzlarning biri bilan mos keladi.

Ma'lumki, "Avesto"da samo yoritqichlari haqida muhim ma'lumotlar uchraydi. Chunonchi, porloq yulduz Sirius – Tishtriya va uning hamkorlaridan biri – Satavayesa. Satavayesa nomining ma'nosi "yuz xizmatkor solibi", "yuz erkak qudratining egasi" yoxud "yuz xona egasi", degan mazmuni ifodalaydi. Bu atamalar majoziy ma'nolarda kelayotgan bo'lishi ehtimolga yaqinroq. Ma'lumki, "Chilla taqvimida"da "yuz kun" hisobi bor. Balki bu ilk taqvimning meyorlari xalq ijodidagi turli miflarga asos bo'lgan.

Biz yuqorida sanab o'tgan ma'lumotlar qadimgi yunon, rim mifologiyasida qayd qilingan, "Avesto"da bayon etilgan qizg'imtir, o't rang yoritqich to'g'risida ma'lumot bizgacha zamonlar osha folklor namunalarida yetib kelgan "Qambar" yulduz turkumidagi O'tga to'g'ri keladi, deb xulosa chiqarishimizga asos beradi. Qolaversa, "Avesto"da Satavayesa yulduzi haqida, uning faoliyati daryolar faoliyati bilan chambarchas bog'liq, deyilgan. U, shuningdek, odamlarni balo-qazodan asraydi, yomg'irni taqsimlaydi. Satavayesa osmonda Tishtriya yulduzidan so'ng paydo bo'ladi. U bilan birga tuman va yomg'irlar ham keladi. Tishtriya okean qa'riga cho'kkach, ufq ortidan Satavayesa ko'rinadi.

Endi Mars, Ares, Antares, Satavayesa va O't yoritqichlarini qiyoslab... ko'rishimiz mumkin".

S.Azizov bu yoritqichlarning nomi, ma'nosi, tusi, xususiyatini jadvalga solib chog'ishtiradi va ushbu xulosaga keladi:

"Ushbu qiyos natijalari Chayon va Qambar nomlari bir yulduz turkumini ifoda etishini ko'rsatib turibdi.

Tishtriya (Sirius) botishi bilan Satavayesa (Antares) chiqadi.

Hulkar botgach, O't Qambar tarkibida chiqadi.

Sirius va Hulkar osmonda Antaresga nisbatan bir tarafda joylashgan. Sirius – Tishtriya va Antares – Satavayesa – O't yulduzlari miloddan avvalgi Y ming yilliklarda kuzatilganligi manbalarda qayd qilingan.

Demak, yuqorida bayon qilingan fikrlar asosida quyidagi umumiy xulosalarga kelish mumkin: Qambar va Chayon yulduz turkumlari bir turkumning boshqa-boshqa nomlari. Chayonning bosh yulduzi Antares va Qambarning bosh yulduzi O't – bir yulduz.

Antares, Satavayesa va O't nomlari ham bir yulduzning turlicha atamalari.

O't yulduzi yozma manbalarda qayd qilinmasa-da, necha ming yillardan beri shu nom bilan bizning kunlargacha aytilib kelinmoqda.

Qambar yulduz turkumi va uning O't yulduzi qadimgi yunon va Rimda kuzatilgan hamda Chayon va Antares nomlari bilan qayd qilingan yoritqichlarning haqiqiy o'zbekcha nomi hisoblanadi.

O't yulduzi "Avesto"da Satavayesa nomi bilan qayd qilingan...

Xalqimizning boy merosida ko'plab qimmatli ma'lumotlar mavjud. Biz birgina "Sir to'la dunyo"da keltirilgan ayrim bandlarga tayanib, umumfalakiyot tarixiga oid nihoyatda qimmatli ma'lumotlarni e'tirof etdik. Ushbu maqoladagi boshqa naqlar ham yana bir necha tadqiqotga asos bo'la oladi" (47).

Folklorshunos olim SH.Turdimov yozib olib, nashr ettirgan mifologik naqlar asrlar osha og'zaki tarzda bizgacha yetib kelgani va falakshunos olim S.Azizov ilmiy kashfiyotiga asos bo'lgani ajoyib voqeadir. Bu tadqiqotchilarni nomoddiy madaniy meros zahirida qanchadan-qancha go'zal topilmalar – bezavol va bardavom qadriyatlar kutayotganligiga majoziy bir ishoradir.

2-BOB

TABIAT VA KOINOTGA OID BILIM VA URF-ODATLARNI YAGONA TIZIM ASOSIDA O'RGANISH

2.1. Tabiat va koinotga oid urf-odatlar tizimi

2-jadval

Yil fasllari bilan bog'liq marosim va urf-odatlar		
№	Bahorgi marosimlar	
1	Abruk chiqarish (chorvaning barakasini saqlab qolish)	Boshqa chorvadorlar bilan birgalikda yulduzlar holati va sayyoralar harakatini yaxshi biluvchi hisobdonlar maslahati bilan belgilangan kuni bahorgi yaylovga ko'chib ketolmagan cho'pon oilasi o'zining biror ro'zg'or anjomini ko'chuvchilardan berib yuborish udumi
2	Boychechak sayli	Boychechak chiqqanligi - qish-qirovli kunlar ortda qolib, ko'klam yaqinlashganligini anglatgan.
3	Bo'g'cha tashlandi	Erta ko'klamda yulduzlarning turishiga qarab, dehqonlar dala hovlilariga ko'chib chiqmoqchi bo'lganlarida, o'zlari tanlagan joyga pichoq suqib belgi qilish va band etish uchun biror bo'g'chani tashlab kelish odati
4	Qizil gul (Guli surx) sayli	Agrar kultlar va hosildorlik g'oyasini o'zida mujassamlashtirgan qadimiy marosim
5	Darveshona	Har yili bahorda hosildorlikka erishish niyatida o'tkaziladigan marosim
6	Shox moylar	Erta ko'klamda dalaga qo'sh olib chiqqan dehqonlarning ho'kizlarining shoxini yog' bilan moylash udumi
7	Kadi sindirdi	Navro'z sayili kuni mahalla ahli bir yerga jam bo'lib, idish sifatida foydalanib kelinayotgan suv va moyqovoqlarning bir nechtasini yerga urib sindirish udumi
8	Qozon to'ldi	Navro'z bayramiga o'tar kechasi oila davrasida o'tkaziladigan udum
9	Halinchak uchish	Ko'klamda qiz-juvonlarning arg'imchoq uchish udumi
10	Sumalak pishirish	Sumalak pishirish bilan bog'liq an'anaviy marosim
11	Ashshadarozi	Sumalak pishirish bilan aloqador marosim
12	Sust xotin	Yomg'ir chaqirish marosimi
13	Navro'z bayrami	Quyosh hamal burjiga kiradigan kunni nishonlash odati
Yozgi marosimlar		
1	Choy momo	Shamol to'xtatish marosimi
2	Yalli momo	Kuchli shamolni to'xtatish maqsadida o'tkaziladigan marosim

Kuzgi marosimlar		
1	Oblo baraka	Hosilni o'rib-yig'ish ishi tugallanishi arafasida o'tkaziladiga marosim
2	Yo Haydar	Dehqonlarning xirmon sovurayotgan paytida shamol chaqirish marosimi
3	Haqullo	Choshdagi g'alladan bir necha hovuch donni «qushlar haqi» sifatida sochish orqali xirmonga baraka tilash marosimi
4	Qovun sayili	O'lkamizdagi kuzgi pishiqchilik, tabiat saxovatini namoyish etuvchi bayram
5	Mehrjon	Ajdodlarimizning koinot va tabiat bilan bog'liq – kuz faslida o'tkaziladigan, ona-yer ne'matlariga shukronalik bayrami
Qishki marosimlar		
1	Qor yog'di	Oila a'zolaridan biri vafot etgan kishilar tomonidan o'tkaziladigan marosim
Oilaviy marosimlar		
1	It ko'ylak kiydirish	Uch kunlik chaqaloqni yovuz kuchlar xurujidan himoya qilish maqsadida unga bobosining ochorli libosidan tikilgan maxsus ko'ylakchani kiydirish udumi
2	Bak-bavak	Xorazm viloyatida chaqaloq besh kunlik bo'lganda o'tkaziladigan marosim
3	Beshik to'yi	Chaqaloqni beshikka belash marosimi. Ajdodlarimiz mevali daraxtlarga xos hosildorlik xususiyati beshik orqali bolaga ham o'tadi, deb ishonganlar
4	Yetti chilla	Chaqaloq yetti kunlik bo'lganda o'tkaziladigan chilla chiqarish marosimi
5	Soch to'yi	Yosh bolaning sochini birinchi marta olish marosimi
6	Tish to'yi	Bolaga birinchi tish chiqqanini nishonlash marosimi
7	Kokil to'yi	Yosh bolalar sochini olganda, boshining orqa tarafida qo'yilgan kokil – «haydar»ni kestirish marosimi
8	O'g'il to'yi (Sunnat to'yi)	O'g'il bolalarni sunnat qilish marosimi
9	Momolar oshi	Yosh bolalar to'satdan kasal bo'lib qolganda o'tkaziladigan marosim
10	Arpa soldi	Kelin-kuyov serfarzand bo'lsin, degan niyatda nikoh oqshomi kuyov to'ning etagiga arpa solish odati
11	It irillatar	Nikoh to'yida kuyov kelinning oldiga kirayotganda, chimildiq yonida ikki kampir ikki tomonga o'tirib olib, itga o'xshab irillab, kuyovning yo'lini to'sib, etagidan tishlash udumi
12	Oyna ko'rsatar	Nikoh to'yi kechasi chimildiqda kelin bilan kuyovga oyna tutish udumi
13	Bet ochar	To'yning ertasi kuni kelinchakning yuzini ochishga

		bag'ishlab o'tkaziladigan marosim
14	Bug'doy to'ldirar	Kelin-kuyov serfarzand bo'lsin, degan niyatda kuyovning oyoq kiyimi ichiga bug'doy solish odati
15	Yog'-o'choq	Kelin tushgan kunning ertasiga qaynonasi bilan birgalikda o'choq boshiga borishi va o't yonib turgan o'choqqa yog' quyish odati
Qamariy taqvim bilan bog'liq marosimlar		
1	Barot keldi	Qamariy yil bilan bog'liq mavsumiy marosim
2	Safar qochdi	Safar oyining oxirgi chorshanba kuni kechasi mahallakuyalarda katta gulxan yoqib olovdan hatlash marosimi

Xalqimiz «Ob-havo darakchilari» belgilariga qarab quyidagi fikrlarni bildiradilar:

- Qish kunlari kechasi havo ochiq bo'lsa, sovuq bo'ladi.
- Qarg'a, zag'chalar aylanib uchsa, ertasiga havo ayniydi.
- Qarg'alar betinim qag'illasa, tez orada qor yog'adi.
- Agar qor gupillatib tez yog'sa, tez tinadi, sekin yog'sa, uzoq yog'adi va sovuq bo'ladi.
- Mushuk va itlar boshlarini oyoqlari orasiga yashirib uxlasa, ertasi kuni sovuq bo'ladi.
- Qushlar hurpayib o'tirsa, sovuq uzoq davom etadi.
- Qishda atrofga chirsillagan tovush eshitilsa, sovuq kuchayadi.

2.2. Pazandalik va xalq tabobati bilan bog'liq bilimlar tasnifi

Inson barcha tirik mavjudotlar qatori tashqi muhit qurshovida hayot kechiradi. U o'z hayotini davom ettirishi uchun ozuqa zarur va bu ozuqani u tashqi muhitdan olishga o'rgangan. Shu sababli ham dastlabki davrda odamlar xuddi boshqa jonzotlar singari tabiat in'omlaridan o'ziga kerakli qismini ajratgan holda xomligicha yeyishga majbur bo'lgan. Keyinchalik esa tabiat in'omlarining bir qismini qayta ishlash orqali o'z organizmiga moslashtirishga harakat qila boshlagan va ana shu vaqtdan e'tiboran pazandalik tarixi davom etib keladi.

“Pazandalik” fors tilidagi “pazidan” (pishirmoq) so'zidan olingan bo'lib, ushbu fe'lning noaniq shakliga turkiy “-lik” qo'shimchasi qo'shilishi natijasida “pazandalik” so'zi yasalgan. Pazandalik san'atini tadqiq etgan K.Mahmudovning “O'zbek taomlari” (1977 y., “O'zbekiston” nashriyoti, Toshkent) hamda “Qiziqarli pazandalik” (1995 y., “O'qituvchi” nashriyoti, Toshkent) kitoblarida pazandalikka: “Tabiat, xususan o'simlik va hayvonot masallig'idan inson a'zolarini mustahkamlaydigan, mehnat va yashash qobiliyatining ortishida vosita bo'ladigan har turli serlazzat,

to'qtutar va pokiza taomlarni tayyorlash hamda did bilan dasturxonga tuzash usullarining yig'indisi", deb ta'rif beriladi.

Pazandalik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar avloddan avlodga asosan og'zaki ravishda va amaliy ko'rsatish vositasida uzatilib kelingan. Hozirda pazandalikning barcha yo'nalishlari bo'yicha ko'plab adabiyotlar chop etilgan, ayniqsa televideniye orqali maxsus dasturlar va kanallar orqali bu bilimlar targ'ib etilayotgan bo'lsa-da, hali-hanuz biz bilmaydigan taomlar ko'p ekanligini kuzatishimiz mumkin. Masalan, mamlakatimizning bir hududida tayyorlanadigan biror-bir taomni boshqa hududda yashaydigan kishi tatib ko'rmagan yoki umuman uning nomini ham eshitmagan bo'lishi mumkin. Qashqadaryo "yaxna"si, Xivaning "hijjon"i, Jizzax va boshqa hududlardagi chorvachilik bilan bog'liq aholining "g'ilmindi", tog' xalqlarining "sur", "cho'pchima", "cho'poncha" singari o'nlab taomlarini boshqa hududlarda yashaydigan hamyurtlarimiz bilmasalar kerak. Bundan tashqari, bir xil nomdagi taomlarning o'zi ham turli hududlarda turli masalliqalar va turli uslublarda tayyorlanishining o'zi ham pazandalikning o'rganilmagan jihatlari va sirlari mavjudligini anglatadi. K.Mahmudovning yozishicha, u qirqdan ortiq variantdagi palov-osh to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plashga erishgan va ularni e'lon qilgan. Biroq hozircha o'rganilmagan yana ko'plab variantlar bo'lishi tabiiy.

Nomoddiy madaniy merosning eng asosiy xususiyatlaridan biri – uning yashovchanligi va zamonga moslashuvidir. Pazandalik san'atida esa bu jihat juda aniq ko'rinadi.

Biz quyida pazandalik san'atini tasniflash (klassifikatsiya qilish)ga harakat qilamiz. Nazarimizda, pazandalikka o'nlab uslubda yondashish mumkin. Masalan:

- hududlarga (yashash joylariga) nisbatan;
- pishirish yoki tayyorlash uslublariga nisbatan;
- masalliqalarning ishtirokiga nisbatan;
- quyuq yoki suyuqligiga nisbatan;
- iste'mol qilish tartibiga nisbatan;
- kishilarning mijoziga nisbatan;
- iste'mol qiladigan odamlarning yoshiga nisbatan;
- iste'mol qiluvchilarning o'troq yoki ko'chmanchi hayot kechirishiga nisbatan;
- mahalliy va boshqa joydan o'zlashtirilganligiga nisbatan;
- dasturxonga tortilish qoidasiga nisbatan;

- uning asosan, erkaklar yoki ayollar tomonidan tayyorlanishiga qarab;
- issiq yoki sovuq holda tayyorlanishi yoki tortilishiga nisbatan;
- birgalikda qo'shib yeyish mumkinligi yoki mumkin emasligiga nisbatan;

- hazm bo'lishining yengilligi yoki qiyinligiga nisbatan;
- tayyorlanish o'rni (ochiq havo, yopiq joy, dala sharoiti va hokazo)ga nisbatan tasniflash mumkin.

Ushbu tasniflar ichida, fikrimizcha, eng muhim va qadimiy sinalgan tasnif uslubi – taomni iste'mol qiluvchining mijoziga nisbatan tasniflanishi to'g'ri bo'ladi. Chunki pazandalikning mahsuli bo'lgan barcha taomlar odamlarning quvvatini tiklash va uning organizmiga zarar yetkazmaslik uchun xizmat qilishi muhimdir.

Shu o'rinda pazandalik san'atining paydo bo'lishi va takomillashuvi bilan bog'liq omillar to'g'risida fikr yuritish joiz.

Aytish zarurki, olovning kashf etilishi ibtidoiy odamlarning nafaqat isinish, balki go'sht mahsulotlarini pishirilgan –xushxo'r, yaxshi hazm bo'ladigan holda iste'mol qilish ehtiyojini qondirgan. Agar avval odamlar termachilik bilan shug'ullanib, turli mevalar va ildizlarni, shuningdek, xom go'shtni iste'mol qilib kelgan bo'lsa, olovdan foydalanishni bilib olgach, go'shtni pishirib yeyishga odatlangan, shu ehtiyoj chorvachilikning paydo bo'lishiga turtki bergan. Keyinchalik tabiatda o'sadigan va yeyishga yaroqli deb hisoblangan o'simliklarni xonakilashtirish natijasida, tadrijiy ravishda, dehqonchilik vujudga kelgan. Taomning xushxo'r bo'lishi unga qo'shiladigan tuz va ziravorlarga ham bog'liqligi aniqlangach, pazandalik yanada takomillashgan.

Taomning sifatini belgilaydigan xususiyatlarga kelsak, har qanday taom avvalo yaxshi ko'rinishga, keyin esa yaxshi ta'mga ega bo'lishi kerak. Chunki, iste'mol qiluvchi unga dastlab ko'z (nazar) tashlaydi va ko'rinishi ma'qul bo'lsagina tatib ko'radi. Lekin, albatta, uning hidi ham muhim ahamiyatga ega.

Mahalliy va xalqaro sayyohlik (turizm) tobora rivojlanib borayotgan hozirgi davrda pazandalik san'ati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Milliy pazandalik mehmondo'st xalqimizning ma'naviy fazilatlarini mehrga to'la amaliy ifodasi sifatida, dehqonlarimiz, chorvadorlarimiz, baliqchilarimiz, bog'bonlarimiz, polizkorlarimiz va o'z ishining ustasi bo'lgan boshqa hamyurtlarimiz mehnatini yuzaga chiqaruvchi san'at sifatida tinchliksevar, bag'rikeng, do'stlikning qadriga chinakamiga yetuvchi dono xalqimiz dovru'g'ini jahon aro taratayotgani barchamizni xushnud qilmoqda.

№	O'simliklar	Xalq meditsinasida qo'llanilishi	№	O'simliklar	Xalq meditsinasida qo'llanilishi
1.	Aloy	Aloy bargidan va uning shirasidan turli kasalliklarni: oshqozon va o'n ikki barmoq ichak yaralari, o'pka silini va boshqalarni davolashda foydalaniladi. O'pka silini davolashda aloy bargini (yoki uning shirasini) asal va cho'chqaning ichki yog'i bilan aralashtirib pishiriladi va bemorga iste'mol qilishga beriladi.	9.	Gulxayri	Gulxayri turlari ildizidan tayyorlangan damlama ko'kyo'tal, o'pka shamollashi, nafas qisishi, ko'krak og'rig'i kasalliklarida yumshatuvchi, og'riq qoldiruvchi va balg'am ko'chiruvchi dori sifatida ishlatiladi. Bulardan tashqari, dizenteriya, buyrak, me'da va o'n ikki barmoq ichak yarasi kasalligida, tomoq yallig'langanda, bolalarning ichi ketganda qo'llanadi.
2.	Anjabor	O'simlik yer ostki qismidan tayyorlangan qaynatmani me'da ichak kasalliklarida, ayniqsa ich ketganda hamda qon to'xtatuvchi dori sifatida iste'mol qilish buyuriladi.	10.	Beshbarg	Ildizpoya yoki o'simlikning yer ustki qismidan tayyorlangan damlama yoki qaynatma qon to'xtatuvchi dori sifatida hamda og'iz og'riganda og'izni chayishda, me'da-ichak kasalliklarida ishlatiladi.
3.	Anjir	Anjir mevasi va undan tayyorlangan damlama yumshatuvchi dori sifatida yo'tal va ko'kyo'tal kasalliklariga davo qilinadi. Bulardan tashqari, lattani mevaning issiq damlamasida namlab, yaraga qo'yiladi. Shamollash kasalliklarida esa, tomoqni chayish uchun ishlatiladi.	11.	Behi	Meva qaynatmasi va pishirilgan meva me'da-ichak kasalliklarida ovqat hazm bo'lishini yaxshilovchi, jigar, qon tupurish kasalliklarini davolashda hamda qusishga qarshi ta'sir qiluvchi, burishtiruvchi, siydik haydovchi, qon to'xtatuvchi dori sifatida qo'llaniladi. Urug'idan tayyorlangan qaynatma ich ketishi, qon tupurishni davolaydi.
4.	Anor	Anor po'stlog'i, mevasi, meva po'sti va guli istisqo, qo'tir, yo'tal, ich ketish, dizenteriya, sariq kasalliklarida hamda qon to'xtatuvchi (qon tupurganda, milkdan qon oqqanda), og'riq qoldiruvchi, siydik va gijja haydovchi dori sifatida ishlatiladi.	12.	Bodom	Achchiq bodom moyi astma, yo'tal, ko'krak og'rig'i, quloq, qorin va o'pka kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Chuchuk bodom urug'ini qand bilan birga ezib quvvatsizlikda, uyqusizlikda, bosh og'riganda, yo'tal va astmada yeyish buyuriladi. Chuchuk bodom urug'i po'chog'ining qaynatmasi qizamiq chiqqan bolalarga ichiriladi.

5.	Arpabodiyon	Arpabodiyon damlamasi me'da-ichak kasalliklarini davolashda hamda ishtaha ochuvchi, chanqovni bosuvchi, siydik va o't haydovchi, terlatuvchi va yengil surgi dori sifatida ishlatiladi.	13.	Bo'tako'z	Bo'tako'zning tilsimon gulidan tayyorlangan damlama shamollash, yo'tal, ko'kyo'tal, qorin, qovuq og'rig'i, ich ketish, nerv va boshqa kasalliklarni davolashda, bachadondan qon ketishini to'xtatishda hamda siydik haydovchi, terlatuvchi dori sifatida ishlatiladi.
6.	Dalachoy	Dalachoy turlaridan tayyorlangan damlama buyrak, qovuq, me'da-ichak kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Bulardan tashqari, undan tayyorlangan damlama qon to'xtatuvchi dori sifatida ham ma'lum. Uzib olingan yangi bargni maydalab, ezib, yaraga qo'yiladi.	14.	Bo'yomodaron	Bu o'simlikdan tayyorlangan damlama yoki qaynatma turli qon oqishlarida qon to'xtatuvchi hamda ishtaha ochuvchi dori sifatida ishlatiladi, bosh og'riqni qoldiradi, siydik haydaydi, o'pka sili va me'da-ichak kasalliklarida foydalaniladi. Bulardan tashqari, bo'yomodaron guli poroshogini asalga qorib yeyilsa, gijjani tushiradi.
7.	Arslonquyruq	Arslonquyruqning yer ustki qismidan tayyorlangan damlama yurak, me'da va asab kasalliklarini davolash uchun ishlatiladi.	15.	Gazako't	O'simlikning yer ustki qismidan tayyorlangan qaynatma me'da, bezgak kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Damlamasi tish og'riqqa, milk qonaganda va yaralarga davo qilinadi.
8.	Atirgul	Gulqandni sovuq oshganda, ayniqsa botalar shamollab qolib yo'talganda, organizm holsizlanganda iste'mol qilish buyuriladi. Atirgul gulbargi ba'zan ich ketganda, o'pka shamollaganda balg'am ko'chiruvchi va yo'talni to'xtatuvchi dori sifatida ishlatiladi.	16.	Gazanda	O'simlik bargidan tayyorlangan damlama yoki qaynatma va poroshok ko'krak og'rig'i, bod, isitma, nafas qisishi, bavoil kasalliklarini davolashda hamda balg'am ko'chiruvchi, siydik haydovchi, qon oqishini to'xtatuvchi dori sifatida qo'llaniladi.

3-BOB

KASB-HUNAR KOLLEJLARI TIZIMIDA NOMODDIY MADANIY MEROSNING TABIAT VA KOINOTGA OID BILIM VA KO'NIKMALARINI IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARGA SINGDIRISH MASALALARI

1.1. Ijtimoiy-gumanitar fanlar tasnifi

Mustaqil O'zbekiston – ta'lim va tarbiya jarayoniga, uni isloh qilishga ustuvor ahamiyat bermoqda. Ta'kidlash joizki, ta'lim-tarbiya sohasida islohotlar o'tkazish va ularning asosiy yo'nalishlarini to'g'ri belgilash muvaffaqiyatlar kaliti bo'ldi. Bu borada ta'lim jarayonini fanlararo aloqadorlikda yoki integratsiya asosida tashkil etish o'z samarasini bermoqda. Ta'lim jarayonida fanning o'rni va u qanday aloqadorlikda o'z samarasini berishi ham muhimdir. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da «fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi» deb ta'riflangan [3, B. 144]. Ta'lim jamiyatni harakatlantiruvchi kuch sifatida ta'kidlanadi. Ta'lim borasida yutuqlarga erishilmasa, jamiyat o'z harakatini davom ettira o'lmay barchaga ma'lum. Behbudiy «Ilm va hunarsiz xalqning boyligi, yeri va asbobi kundan-kun qo'lidan ketganidek, axloq va obro'yi ham qo'ldan chiqar, hatto dini ham zaif bo'lur», deb bayon qilganlar.

L.Pasterning ta'kidlashicha, «Fan vatanning eng kichik qiyofasi bo'lmog'i zarur, zotan, barcha xalqlar ichida fikr va aqliy faoliyat sohasida boshqalardan o'zib ketgan xalqgina birinchi o'rinni oladi».

Demak, fan jamiyat rivojlanishidagi asosiy kuch hisoblanadi. Kishilik dunyosini fan nuqtai nazaridan izohlash, garchi keyinroq boshlangan bo'lsa-da, uning ayrim oddiy unsurlari jamiyatning kelib chiqish davridan mavjud. Bu bilimlar avval eng sodda ko'rinishda bo'lib, kishilar dunyosi haqidagi eng umumiy qarashlarinigina oddiy tarzda ifodalagan. Kishilar tevarak-atrofdagi o'simliklar va hayvonlar to'g'risida ma'lum bilimlarga ega bo'lsalar-da, ularning jamiyat haqidagi bilimlari juda qiyinchilik bilan, uzoq davrlar davomida to'planib borgan. Mazkur kuch samarali bo'lishi uchun ta'lim jarayonida fanlar aloqasi muhim.

Ma'lumki, ta'lim jarayonida fanlar o'z o'rganish obyektlari va predmetlariga ko'ra yirik guruhlariga bo'lingan. Lekin moddiy va ma'naviy olamni o'rganuvchi turli fanlarning o'zaro hamkorligi tabiiy jarayon bo'lib, ularning taraqqiyotida ikki obyektiv tendensiya, ya'ni differentsatsiya (tarmoqlanish) va integratsiya (qo'shilish) namoyon

bo'ladi. Natijada olamning yaxlit, umumiy ilmiy manzarasi yaratilishiga imkon yaratiladi. Fanlar integratsiyasi asosida sivilizatsiyaning noyob yutuqlari o'rganilmoqda. Demak, ta'lim jarayonida fanlararo aloqadorlik va integratsiya so'zlari uchrab turadi.

Fanlar ilmiy bilishning shakllaridir. Fanlar borliq va uning turli ko'rinishlari: tabiat, jamiyat, inson, inson tafakkuri to'g'risidagi ilmiy bilish jarayonida yuzaga kelgan bilimlar tizimlaridan iboratdir.

Jamiyatda fanlarning rivojlanishi va ularning ijtimoiy ahamiyati ortib borishida uch muhim bosqich farq qilinadi. Birinchi bosqichda fanlar jamiyat ishlab chiqarishiga oid amaliy-ijtimoiy talablar va ehtiyojlarga javob berish asosida paydo bo'ladi va rivojlanadi [13, B. 417-418]. Fanlar taraqqiyotining yangi ikkinchi bosqichi XIV asrning oxiri va XV asrlarda O'rta Osiyoda Temuriylar saltanati davrida hamda XVII asrning oxirlaridan boshlab Ovro'pada kapitalizmning tez rivojlanishi bilan boshlanadi. Fanlar rivojlanishining uchinchi bosqichi XX asr boshlaridan amalga kiradi [13, B. 419]. Fanlarning predmeti, keng ma'noda, insonni qurshab turgan borliq va uning shakllaridir. Shu jihatdan fanlarni ularning predmetlariga ko'ra shartli ravishda tabiatshunoslik, jamiyatshunoslik va ularning o'rtasidagi texnika fanlariga bo'lish mumkin. Fanlarni yana amaliy va fundamental fanlarga bo'lishadi [13, B. 420]. Falsafa, tabiatshunoslik fanlari, ijtimoiy-gumanitar va texnika fanlari bir-birlari bilan chambarchas bog'liq va aloqadorlikda, birlikda rivojlanib boradi [13, B. 420-421].

Ma'lumki, kasb-hunar kollejlarda (KHK) bo'lajak kichik mutaxassislarni tayyorlashdagi o'quv rejaga kiritilgan 23 ta fan KHKning «Umumta'lim fanlari» blokining asosini tashkil etadi. Umumta'lim fanlari blokidagi tabiiy, ijtimoiy-gumanitar, aniq fanlar bo'lajak kichik mutaxassislarning jamiyat va uning qonuniyatlari uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni beradi. KHKdagi bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda «Mutaxassislik fanlari» bloki (maxsus fanlar) muhimligi uning maqsadi tayyorlanadigan kichik mutaxassislarni kasbiy faoliyatga hozirlashning asosini tashkil etadi. Bo'lajak kichik mutaxassislarni tayyorlashda, ko'proq amaliy kasbiy faoliyatga tegishli nazariy materiallarni bayon qilishda, mustaqil ishlarni olib borishda ko'proq nomoddiy madaniy merosning tabiat va koinotga oid xalq qarashlari bilan uyg'un ravishda taqdim etilsa, bu nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'quvchilar ongiga singdirishda ekologik tarbiyaning uyg'un holdagi variantini kafolatlaydi. Shu sababli ham mutaxassislik fanlaridan o'quv-metodik majmualar yaratishda, ularga oid multimediali

ta'lim texnologiyalarini joriy etishda ekologik tarbiya e'tiborga olinishi lozim.

"Tabiat" so'ziga e'tibor beradigan bo'lsak, u keng ma'noda falsafiy tushunchalardan biridir. Tabiat benihoyat xilma-xil shakl va ko'rinishlari bilan insonni qurshab turgan moddiy olam, butun mavjudotdan iboratdir. "Tabiat" tushunchasini "borliq" tushunchasi bilan aynanlashtirmaslik lozim. Shuningdek, "tabiat" tushunchasi "materiya" tushunchasiga yaqin turadi. Demak, tabiat xilma-xil jismlardan tashkil topgan materiyadir, deydilar. Insonning tabiatga munosabati masalasi tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida turlicha namoyon bo'la boshlaydi. Ibtidoiy odam uchun tabiat butunlay ilohiylashgan bo'lganligi bilan xarakterlidir. Mifologik tafakkur hali tabiat bilan insonning bir-biriga nisbatan munosabatini to'g'ri belgilash uchun muayyan asos bo'la olmasdi. Tabiat haqidagi bilimlarning ortib borishi, unga nisbatan muayyan qarashlarning shakllanishiga yordam berdi, deb uqtiradilar.

Qadimgi odamlar tabiatning ko'pgina hodisalari oldida ojiz bo'lganlar va ulardan qo'rqqanlar, tabiat hodisalarining haqiqiy sabablarini bilmaganlar, ularni g'ayritabiiy kuchlar vujudga keltiradi, deb ishonganlar.

Totemizm bilan bog'liq tasavvurlarda kishilar totemga, ya'ni o'simlik yoki hayvonning yordamiga muhtoj bo'lganlar. Totemlarga ehtirom ko'rsatishgan, ularni o'ldirish va otish mumkin bo'lmagan. Avvallari totemlar sifatida faqat hayvonlar, shunda ham ov hayvonlari e'zozlangan. Biroq, keyinchalik qarindoshlik munosabatlari boshqa hayvonlarga ham, ba'zi hollarda esa o'simliklar, tabiat hodisalariga (yomg'ir, quyosh, sharmol va hokazo) ham tarqalgan. Totemlar haqida rivoyatlar to'qilgan. Bular totemning avlodlari to'g'risidagi afsonaviy timsollardan iborat edi. Bu afsonalarda avlodlar hayvon ko'rinishida, ba'zan hayvon nomi qo'yilgan odam qiyofasida gavdalangan. Bu afsonaviy avlodlar go'yo ov qilganlar, har xil marosimlarni bajarganlar, ko'chmanchilik qilganlar. Masalan, Avstraliya qabilalari urug'lari ayni vaqtda totemlarga ajralgan guruhlarga bo'lingan. Bu urug' – totemlar birorta hayvon, ba'zi o'simlik nomi bilan atalgan. Bu bilan avstraliyaliklar o'zlarining mazkur hayvon turi, masalan, kenguru bilan qarindoshliklarini ta'kidlaganlar. Ayni paytda muchal yillari ham tarixan totemizm bilan bog'liqdir.

Animizm diniy tasavvurlarida kishilar tabiatdagi har bir hodisaning ruhi bor, deb hisoblaganlar. E'tibor beradigan bo'lsak, bugungi kunda ayrim bobo-buvilarimiz "o'simlikning joni bor" yoki "suvning ruhi bor" deb nabiralari tabiatga nisbatan noto'g'ri munosabat qilishlariga yo'l qo'ymasliklari bejiz emas.

Fetishizm diniy tasavvurlarida kishilar tabiatdagi turli narsalar va hodisalar g'ayritabiiy, ilohiy deb tushunganlar va ularga sig'inganlar. Sig'inish obyektlari, ya'ni fetishlar (narsalar) – tosh, tayoq, daraxt, umuman, har qanday buyum bo'lishi mumkin. Ma'lumki, tabiatdagi turli narsalar, hodisalar va ularning murakkab tomonlari ibtidoiy davr kishilariga sirli bo'lib tuyulgan, natijada kishilar ularni g'ayritabiiy, ilohiy deb tushunganlar va ularga sig'inganlar. Ibtidoiy odam ko'pincha odatdagi buyum va hodisalarga xos bo'lmagan xususiyatlarni bor deb o'ylar edi. Masalan, "shamol kelmoqda", "tabiat uxlamqda" deb ishonishardi va h. Fetishizm – sehrgarlikka qaraganda, – diniy tasavvurning ancha murakkabroq shaklidir. Bu murakkablik – diniy tasavvur shakllangan makonlardagi odamlarning dastlab har xil buyumlardan, tog'-toshlardan, daraxtlardan, keyinchalik esa tumor, sanam (but) va hokazolardan ko'mak olishga umid bog'laganliklari bilan belgilanadi. Markaziy Osiyoda, misol uchun sunbula, tudona, sedana, tasbeh, qalampirmunchoq, ko'ztikan, ko'ktikan, gulhamishabahor, piyoz, sarimsoq, achchiq qalampir, isiriq, do'lana, murch, pista, chilonjiyda kabilar; yoki yong'oq, chinor, anjir, jiya, archa va boshqalar ilohiylashtirilgan, timsollashtirilgan.

Sehrgarlik – odam, hayvon va tabiatga g'ayritabiiy yo'l bilan ta'sir o'tkazish maqsadida bajariladigan xatti-harakatlar va bid'atlar. Sehrgarlik barcha dinlarning asosiy tarkibiy qismlaridan biri ekanligi bilan ajralib turadi. Sehrgarlik turlaridan davolash va ob-havo sehrgarligi tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlarining avloddan-avlodga o'tkazilishiga sabab bo'ladi. Ya'ni ko'pgina xalqlarda, xususan, Sharq xalqlarida, jumladan, biz, o'zbeklarda ham duoning kuchi bilan kasallikni daraxtlarga ham o'tkazib yuborish mumkin, degan ishonch bo'lgan, bu bilan bog'liq marosimlar bajarib kelingan.

Zardushtiylilik ta'limotida tuproq, suv, havo va olov muqaddaslashtirilgan. Shu bilan birga suv, yerning muqaddasligi hamda itlarga g'amxo'r bo'lish g'oyasi tarannum etilgan:

"... Ey suvlar! Sizlar yaxshilik bilan ravonasiz, xilqatni yuvib, pok etasiz va ikki jahon saodatiga sazovorsiz. Biz sizlarni e'zozlaymiz" [9, B. 98].

"Chashmazorlar va daryo suvlarini olqish etamiz. Giyohlarning tana va ildizlarini e'zozlaymiz. Butkul yer yuzini olqishlaymiz. Butkul osmonni madh etamiz. Barcha yulduzlar, oy va quyoshni olqishlaymiz. Barcha suv hayvonlari, yer osti maxluqlari, parranda va darrandalarni olqishlaymiz" [9, B.100]. "Manzillar, qishloqlar, yaylovlar, xonumanlar, suvloqlarni olqishlaymiz" [9, B. 101].

“Zamini hammadan ko‘ra baxtiyor bo‘lgan joy – bug‘doy, yog‘li va mevali daraxtlar ekkan, odamlar qurg‘oq yerlarga suv chiqargan, suvli yerlarni shudgor qilgan zamindir” [9, B.113]. “Uzoq zamon ekilmagan va omoch tegmagan zamin baxtsizdir. U omochni orzu qiladi. Bunday zamin balog‘at pallasiga kirgan sohibjamol qizdir...” [9, B. 114].

“Kimki gala itini, xonaki itni, yo daydi itni yoxud ov itini urib o‘ldirsa, uning ruhi narigi dunyoga ko‘chganidan so‘ng, bepoyon bir changzalzorda bo‘ri tilkalayotgan qo‘yning dahshatli ovozidan ayanchliroq faryod bilan behishtni tark etadi” [9, B.153].

Islom ta‘limoti ayrim hayvonlarni ovlashni man etadi, daraxt va o‘simliklarni parvarish qilishni quyidagi suralarda targ‘ib qiladi:

An‘om surasining 38-oyatida: “Yerdagi biror jonivor va biror ikki qanoti bilan uchadigan parranda yo‘qki, (ular ham) sizlar kabi ummat bo‘lmasalar”, 141-oyatida: “U (Alloh) shunday zotki, (so‘ritoklarga) ko‘tarib qo‘yiladigan va ko‘tarib qo‘yilmaydigan (uzumzor) bog‘larni, ta‘mi turlicha (bo‘lgan) xurmo va mevali daraxtlarni, (rang va ta‘mda) o‘xshash va o‘xshamas zaytun va anorlarni paydo qildi. Meva hosil qilganda, mevasidan tanovul qilingiz! Hosil yig‘ish kunida (muhtojlarga) haqqini (ushri va xirojini) beringiz va isrof qilmangiz!”, 142-oyatida: “Hayvonlardan esa, yuk ko‘taradigan va (so‘yish uchun) yotqiziladiganlarini (paydo qildi)”, deb marhamat qilingan.

